O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg’a surilgan g’oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag’rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig’iday asrashga doimo da’vat etib turadi”**66** – deb aytib o‘tgan gaplari yuqorida nomlari keltirilgan jadid namoyondalarining fikrlari bilan hamohangdir. Keyingi yillarda mamlakatimiz hayotida keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan islohotlardan biri tarixiy merosni qayta tiklash, buyuk allomalarimiz faoliyatini keng ko‘lamda targ’ib qilish asnosida xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz dunyoqarashida yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishdir.

Vatanimiz tarixining turli davrlarida jahon taraqqiyotiga munisib hissa qo‘shgan ko‘plab buyuk allomalarimiz yetishib chiqqan. Shu bilan birganlikda vatanimizni bosqinchilardan ozod qilish va ularga qarshi kurashish yo‘lida istiqlol g’oyalari ilgari surgan hamda jon fido qilgan vatandoshlarimiz xizmati bugungi mustaqil davlatimizning vujudga kelishida va taraqqiy etishida o‘zlarining ilmiy-g’oyaviy hizmatlari kattadir. Har qanday sharoitda ham o‘z xalqining sha’nini baland ko‘targuvchi yorqin shaxslar bor bo‘lgan. Yaqin o‘tmishimizga nazar tashlaydigan bulsak, millatning o‘zligini anglashga xizmat qilib, xalq baxti yulida aziz jonlarini qurbon qilgan Mahmudxuja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xujayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho’lpon, Usmon Nosir, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Saidnosir Mirjalolov, Obidjon Maxmudov, Ashurali Zohiriy, Abduqodir SHakuriy va boshqa kuplab insonlar siymosi har lahza qalblarimizni yoritib, tarixdan saboq olishga undaydi. Vatanimizning uncha uzoq bo‘lmagan XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlari tarixida rus podsho hukumati va uning o‘rniga kelgan bolsheviklarning sovet mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashda yangi ma’rifatparvarlik oqimi hisoblangan jadidchilik harakati vujudga keldi. Yuqorida nomlari keltirilgan shaxslar aynan shu harkatning asosiy va g’oyaviy namoyondalaridir.

Jadidlar harakati ijtimoiy-tarbiyashunoslikda alohida oqim sifatida XX asr boshlarida Qrim, Qozon, Kavkaz va Markaziy Osiyoda shakllandi. Jadidchilikning otasi Qrim-tatar Ismoilbek G‘aspirali edi. U o‘zi nashr etgan “Tarjumon” ro‘znomasida musulmon maktab va madrasalarida diniy bilimlarni arab, fors, rus tillarini o‘rganish bilan birga tibbiyot, kimyo, nabotot, nujum, xandasa ilmlarini o‘rgatishni ham keng targ‘ib qildi.

Bundan tashqari Ismoilbek G‘aspirali 1884 yilda Qrimning Bog‘chasaroy shahrida birinchi jaded maktabini ochdi, bu maktab uchun “Xo‘jayi sibyon”, ya’ni “Bolalar muallimi” deb nomlangan darslik chop ettirdi. Shu tariqa Turkiston ma’rifatparvar jadidlari asarlarida ilgari surilgan yangi usul maktabi va maorifi qomusini XIX asrning 80-yillarida Ismoil G‘aspirali yaratdi. G‘aspiralining bu g‘oyasini quyidagi ma’rifatparvarlar o‘zlarining ijodiy faoliyatlari bilan davom ettirganlar. Jadid ma’rifatparvar namoyondalaridan Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida aynan bugungi kun dolzarb muammolari hisoblangan oilaviy ajrimlarning oldini olish borasidagi muhim qarashlar berilgan. Ushbu asarda ham farzand tarbiyasi va kamolotiga aloxida e’tibor beriladi. Asarda Odamning kamoli faqat sog'liq va kuchdan iborat bo‘lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat deb ta’kidlanadi.

66 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jadidlar: milliy o’zlik, istiqlol va davlatchilik g’oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. https://daryo.uz/k/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-o‘zlik istiqlol-va davlatchilik-g‘oyalari-mavzusidagi xalqaro-konferensiya ishtirokchilariga-tabrigi e’lon-qilindi

Aql va axloqan yuksaklik esa ilmiy bilimlardan ekanligi e’tirof etiladi. Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy opbybyu “Yoshlarg’a murojaat” maqolasida yoshlarni xorijiy til va ilm o‘rganishga, shuningdek, dabdabali marosimlarga sarflanadigan satf xarajatlar o‘rniga ilm olishga chaqiradi**.** Bu ma’rifat darg‘alarining bizga qoldirgan noyob asarlari, faoliyatlari bugungi kun falsaf tarixida, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashdagi savobli ishimizda bizga dasturilamal bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Isxoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Saidrasul Aziziy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdulqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabilar shular jumlasidandir. Bugungi kunga kelib, birinchidan, jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e’tirof etilmoqda va ma’rifatparvar ajdodlarimizning xizmatlari tan olinib, ularning g‘oyalari hamda ta’limotlarini o‘rganish, tadqiq etish, shuningdek, amaliyotga joriy etish masalalariga kun tartibidagi asosiy vazifalar sifatida qaralmoqda. Ikkinchidan, jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, o‘nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda, ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Uchinchidan, keyingi yillarda asrlar davomida orzu qilingan, jadidlar ham intilib kelgan ezgu g‘oyalar amalga oshmoqda, yurtimizda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish imkoni paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Pespublikasining prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jadidlar: milliy o’zlik, istiqlol va davlatchilik g’oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi.
https://daryo.uz/k/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-o‘zlik istiqlol-va davlatchilik g‘oyalari mavzusidagi xalqaro-konferensiya ishtirokchilariga tabrigi e’lon qilindi.
2. Fitrat A Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: “Cho’lpon”, 2013. –B. 70-75
3.Toshqulov J.O‘zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlari tarixidan.-Toshkent:O‘zbekiston,1996.-B.43.
4. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar. 2 jildlik 1-jild. –T.: “Ma’naviyat”, 2020. - B. 198-200

SUN’IY INTELLEKT VA TIL O‘RGATISH JARAYONIDAGI TRANSFORMATSIYALAR

N.A.Nematova, NavDU Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi
H.Merkabayeva, 1-kurs Inson resurslarini boshqarish talabasi

Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi natijasida o‘quv jarayonlari butunlay yangi bosqichga o‘tmoqda. SI orqali bilimlarni avtomatik ravishda yetkazish, real vaqt rejimida o‘quvchilar bilan interaktiv muloqotga kirishish, shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish, bilim darajasini aniqlovchi aqlli baholash tizimlari yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Sun’iy intellekt (SI) bugungi kunda butun dunyo qatorida O‘zbekistonga ham jadal kirib kelmoqda va u jamiyatning turli sohalarida katta ijobiy o‘zgarishlar qilish imkonini bermoqda.

1.Sun’iy intellekt ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim: O‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishiga mos dars materiallarini taklif qiladi.

Masofaviy ta’limni rivojlantiradi. Onlayn platformalarda aqlli yordamchilar (chatbotlar) talabalarga 24/7 yordam beradi. Tushunmovchilik bo‘lgan savollarga javob olishlari mumkin.

O‘qituvchilar ishini yengillashtiradi. Test tekshirish, baholash, statistik tahlil avtomatlashtiriladi. Ayniqsa chet tillarini o‘qitishda SI vositalari individual yondashuv, mashqni takrorlash, talaffuzni tuzatish, yozma ishlarni avtomatik tahlil qilish kabi imkoniyatlarni yaratmoqda. Chet tili ta’limi sohasida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, ularga mos metodlarni tanlash, interaktiv mashqlarni yaratish hamda o‘qituvchining ishini yengillashtirishda SI

vositalarining roli tobora kuchayib bormoqda. Bu esa ta’limning texnologik transformatsiyaga uchrayotganligini anglatadi. Sun’iy intellekt tushunchasi va uning asosiy turlari bir nechta bo‘lib ular quyidagilar:

A. Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlariga inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan funksiyalarni (mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, o‘rganish, tilni tushunish, qaror qabul qilish) amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. U quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ega:

B.Mashinali o‘rganish (Machine Learning) – kompyuter tizimi o‘z tajribasidan o‘rganadi va yangi vazifalarni mustaqil bajaradi;

Mashinali o‘rganish (MO’) — bu sun’iy intellekt yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kompyuter tizimlariga aniq dasturlashsiz, tajriba (ma’lumotlar) asosida mustaqil o‘rganish va takomillashish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, MO kompyuter dasturlarini oldindan yozilgan qoidalar asosida emas, balki katta hajmdagi ma’lumotlardan saboq chiqarish orqali o‘z faoliyatini o‘zgartirishga qodir qiladi. Mashinali o‘rganish qanday ishlaydi? MO’ tizimi ko‘plab ma’lumotlarni (matn, rasm, audio, video) tahlil qiladi, ulardagi naqsh va qonuniyatlarni aniqlaydi va kelajakdagi vazifalarda ushbu naqshlar asosida qaror qabul qiladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlash – modelni o‘rgatish uchun kerakli ma’lumotlar jamlanadi va tozalanadi.

2. Model tanlash va o‘rgatish – algoritm tanlanadi va unga ma’lumotlar asosida “trening” beriladi.

3. Modelni sinash va baholash – model yangi ma’lumotlarda sinovdan o‘tkaziladi, natijalari baholanadi.

4. Modelni takomillashtirish – aniqlik darajasi past bo‘lsa, parametrlar sozlanadi yoki yangi ma’lumotlar bilan qayta o‘qitiladi.

Mashinali o‘rganishning asosiy turlari:

1. Nazoratli o‘rganish (Supervised Learning):

Modelga kirish (input) va chiqish (output) ma’lumotlari beriladi, ularning orasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Masalan: inglizcha so‘z va uning tarjimasi asosida tarjima modelini yaratish.

2. Nazoratsiz o‘rganish (Unsupervised Learning):

Faqat kirish ma’lumotlari beriladi, model ma’lumotlar orasidagi yashirin naqshlarni mustaqil ravishda aniqlaydi. Masalan: o‘quvchilarning til o‘rganishdagi uslublarini guruhlash.

3. Mustahkamlovchi o‘rganish (Reinforcement Learning):

Model harakat qiladi va natijaga qarab mukofot yoki jarima oladi; bu orqali optimal strategiyani shakllantiradi. Masalan: til o‘rganishda interaktiv chatbotlar orqali o‘quvchining savollariga real vaqtda javob berish.

Mashinali o‘rganishning chet tili o‘rgatishdagi roli juda katta. Til o‘rgatish ilovalari (Duolingo, Memrise) – foydalanuvchining o‘zlashtirish darajasiga qarab mashqlarni avtomatik tarzda moslashtiradi;

Yozma ishlarga avtomatik tahlil (Grammarly, Quillbot) – imlo, grammatik xatolarni aniqlaydi va tavsiyalar beradi;

Interaktiv suhbatlar (AI chatbots) – mashinaviy o‘rganish orqali foydalanuvchining savollariga mos javoblarni taklif qiladi;

Talaffuzni tuzatish (Elsa Speak) – foydalanuvchining talaffuzini tahlil qilib, real vaqtda tuzatmalar kiritadi.

Shunday qilib,sun’iy intellektdan foydalanish barcha sohalarda katta ijobiy ko‘rsatkichlarga erishishga imkon beradi. mashinali o‘rganish — bu ta’limda inqilobiy yondashuv bo‘lib, chet tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchining ehtiyojlariga mos, shaxsiylashtirilgan va samarali o‘qitish imkonini beradi. U nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki o‘qituvchining ish yukini yengillashtirib, metodikani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1.Artificial Intelligence: A Modern Approach. Stuart J. Russell, Peter Norvig.Prentice Hall / Pearson (4-chi nashr). 2020 (4-edition)

2.Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Nick Bostrom. Oxford University Press. 2014

3.Being Human in the Age of Artificial Intelligence. Max Tegmark. Alfred A. Knopf. 2017
4.The Alignment Problem: Machine Learning and Human Values. Brian Christian. W. W. Norton & Company. 2020
5.You Look Like a Thing and I Love You: How AI Works and Why It's Making the World a Weirder Place. Janelle Shane. Voracious (original), Little, Brown and Company (hardcover).2019
6.How to Be Human in the Age of the Machine. Hannah Fry. Transworld Publishers / Black Swan / W. W. Norton & Company. 2018–2019

ТУРИЗМ ТАРМОҒИДАГИ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАДРЛАР БОШҚАРУВИ МАСАЛАСИ

Усмонова Лазиза-
Бухоро инновациялар университети магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада туризм хизматлари бозорининг ривожланиш хусусиятлари, шарт-шароитлари ва тамойилларини ўрганиш, туризм соҳасида давлат сиёсатини амалга оширишнинг устувор йўналишлари, туризм хизматлари бозорининг ривожланишида ҳудудий сайёҳлик тизимларининг урнини асослаш ва кулай ракобатчилик муҳитни шакллантириш йўналишлари, туристик хизматлар бозорини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари бўйича омиллари тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: туризм, давлат сиёсати, туризм индустрияси, рақобат, туристик маҳсулот, туристик хизматлар.

НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В УПРАВЛЕНИИ ТУРИСТИЧЕСКИМИ УСЛУГАМИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности, условия и принципы развития рынка туристских услуг, приоритеты государственной политики в сфере туризма, роль региональных туристских систем в развитии рынка туристических услуг и формировании благоприятного конкурентная среда.

Ключевые слова: туризм, государственная политика, индустрия туризма, конкуренция, туристический продукт, туристские услуги.

Кириш

Бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларда хам туризмни иқтисодиётнинг стратегик тармоғига айлантириш, туризм хизматлари бозори фаолиятини кенгайтириш, худудий сайёхлик тизимларини ривожлантириш масалаларига алохида эътибор берилмокда. 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор юналиши буйича Хдракатлар стратегиясида туризм индустриясини жадал ривожлантириш, иқтисодиётда унинг роли ва улушини ошириш, туристик хизматларни диверсификатсия килиш ва сифатини яхшилаш, туризм инфратузилмасини кенгайтириш каби вазифалар белгиланган [1].

Хозирги замонавий шароитларда туризм хизматлари бозори фаолиятини кенгайтириш, худудий сайёхлик тизимлари, жумладан туристик кластерлар, туризмга ихтисослашган эркин худудлар фаолиятини йулга қуйиш ва ривожлантириш объектив ахамият касб этган масалалар қаторига кирди. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек: "Туризмни иқтисодиётнинг стратегик тармоғига айлантириш биз учун устувор вазифа булиб колади"[2]. Туризм хизматлари бозори фаолиятини кенгайтиришда худудий сайёхлик тизимлари, жумладан туристик кластерлар ва эркин туристик худудлар фаолиятини самарали ташкил этиш учун хорижий мамлакатлар тажрибасини урганиш ва атрофлича тахлил этиш зарур.

Мавзуга оид адабиётларнинг тахлили

Туризм хизматлари бозори фаолиятини кенгайтиришниг назарий ва амалий жихатлари хамда худудий сайёхлик тизимлар фаолиятини йулга куйиш ва ривожлантириш масалалари куплаб хориж иқтисодчи олимларининг илмий ишларида уз аксини топган. Жумладан,

Шилченко Т.Л.[3], Кварталнов
В.[4], Чудновский А.Д.[5], Дурович А.П.[6], ва бошкаларнинг илмий ишларида ёритилган.

Мамлакатимизда туризм хизматлари бозори фаолиятини кенгайтиришнинг назарий жихатлари, худудий сайёхлик тизимларини шакллантиришнинг узига хос хусусиятлари, туристик кластерлар хамда эркин туристик худудлар фаолиятини ривожлантириш масалалари Тухлиев И.С[7], Рахматуллаева Ф.М.[8], Навруз-зода Ш.Б.[9], Рузиев Ш.Р[10] ва бошка олимларнинг илмий ишларида тадкик этилган.

Шундай қилиб, сунгги йилларда мамлакат миллий иқтисодиётининг стратегик тармокларидан бири сифатида туризмни ривожлантириш буйича комплекс чора-тадбирлар изчил амалга оширилмокда, бу эса унинг тез ривожланиши, янги иш уринларини яратиш, даромадларни купайтириш, ахоли турмуш даражаси ва сифатини юксалтириш, шунингдек, инвестицион жозибадорлигини оширишга каратилган.

Тадқиқот методологияси

Ушбу мақолада хорижий ва махаллий олимларнинг илмий ишлари, илмий монографиялари, ўқув қўлланмалари ва мақолаларини таҳлил қилиш, статистик таҳлиллари, миқдор ва сифат кўрсатикичларни ҳисоблаш, уларни бир-бири билан солиштириш каби услублардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Кейинги йилларда туризмга оид ижтимоий-иқтисодий муносабатларни шакллантириш ва ривожлантиришда алоҳида аҳамиятга эга бўлган янги ресурслар гуруҳи, яъни институционал ресурсларни инобатга олиниаши такозо этилмокда. Чунки институционал ресурслар жами ресурс таъминотини фаоллаштириш учун давлат ташкилотлари, расмий ва норасмий молиявий институтлар салохиятидан хар тарафлама ва тўлиқ фойдаланиш буйича кушимча шарт-шароитларни яратади. Ҳудудда туризм бозорини ривожлантириш учун доимий назоратни талаб этувчи ташкилий-бошқарув блоки элементларидан бири булган туристлар хавфсизлигини таъминлаш мухим ахамиятга эга.

Иқтисодиётда хизматлар ўсишининг асосий омилларини илмий билимлар, номоддий шаклдаги тўпламлар, ахборот технологиялари ва тадбиркорлик фаолияти интеграцияси каби омиллар ташкил этади. Бугунги кунда Республикамизда хизмат курсатиш сохасини, жумладан туристик хизматлар курсатадиган корхоналарни жадал ривожлантириш, ялпи ички махсулотни шакллантиришда туризм хизматларининг ўрни ва улушини ошириш, курсатилаётган хизматлар таркибини, энг аввало, уларнинг замонавий юқори технологик турлари хисобига тубдан узгартириш долзарб масала хисобланади.

Туризм бозорининг ривожланишини белгиловчи муносабатлар пойдевори маълум бир макон ва замонга хос булган шарт-шароитлар пойдевори асосида шаклланади. Маълум бир худудда туризм бозорининг ривожланиш шарт-шароитлари хусусиятларини туликрок англаш учун уларни учта тузилмавий гуруҳга булиб ўрганиш мақсадга мувофиқдир (1-жадвал).

1-жадвал

Туризм бозорининг ривожланиш шарт-шароитлари

Асосий блоклар	**Таркибий тузилмаси**
Табиий-географик	Минтақада туризм шаклланишининг базис шароитларини ташкил этувчи: Минтақа географияси: Минтаканинг табиий-географик, тарихий-маданий, ҳудудий-географик хусусиятлари ва ресурслари.
Ижтимоий-иқтисодий	туристик фаолиятнинг мехнат ресурскари билан таъминланганлиги; - туризм сохасининг молиявий ресурслар билан таъминланганлиги.

Ташкилий институционал	Туристик фаолиятнинг институционал ва ахборот ресурслари билан таъминланганлиги; Туристик инфратузилманинг ривожланганлиги; Туристик худудга транспортда бооpиш имконияти; Туризм ривожланишини давлат томонидан тартибга солиш механизмининг самарали ишлаши; Худудда туристлар хавфсизлигининг таъминланганлиги.

Туризм бозоридаги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар мохиятан бир томондан, туроператорлар, турагентлар, уларнинг контрагентлари ва хамкор ташкилотларнинг туристик талабни кондиришга йуналтирилган махсулотларни ишлаб чикариш ва реализатсия килиш буйича фаолиятларини рагбатлантириш, бошка томондан эса, икки томонлама келишув асосида туристларнинг туловга кодир талабларини кондириш ва мотивлаштиришга каратилган хисобланади.

Мамлакат худудларида туризмнинг ижтимоий самарадорликка бевосита таъсирини алохида куриб чикиш максадга мувофик. Бу йуналишда хорижда бир катор илмий ишлар чоп этилишига карамасдан, туризмнинг ижтимоий ривожланишга ва ахоли турмуш даражасига таъсирининг илмий-назарий асослари хали тулик шаклланмаган. Аввало, худудий туризм бозорининг ижтимоий сохага таъсир курсатишининг асосий йуналишларини аниклаб олиш зарур. Туризмнинг ижобий таъсири биринчи навбатда минтакадаги миллий кадриятлар ва урф-одатларни мустахкамлаш ва янада ривожлантиришга олиб келади. Ушбу йуналиш минтакада узига хос маданий туристик брендни шаклланиши ва туристларни таклиф килишнинг мухим механизми булиб хизмат килади. Шунингдек, туризм инфратузилмасини ривожлантиришда янги коммуникациялар, информатсион технологияларни куллаш ахолининг ижтимоий карашларини ва фаолиятларини ижобий тарафга узгаришига олиб келади.

Миллий иқтисодиёт таркибида туризм сохасининг ривожланиши узига хос хусусиятларга эга булиб, булар куйидагилардан иборатдир:

- Туризм сохаси сайёхларнинг эхтиёжларини кондиришга юналтирилган куп киррали функсионал тузилмага эга мураккаб тизим хисобланади,шунингдек, хизмат курсатишда фойдаланиладиган узига хос шакл ва усулларни камраб олади;

- Туризм бозорида туристлар учун узига хос булган туристик махсулот таклиф этилади. Туристик махсулот комплекс тавсифга эга булиб, саёхат давомида вужудга келадиган талабни кондириш учун зарурий хизматларнинг “пакети” шаклида намоён булади;

- Туризм сохасининг моддий ишлаб чикаришдан асосий фарки, туристик хизматларни курсатиш буйича пировард натижаларга эришиш бевосита исте’молчининг иштирокида юзага келиши хамда исте’мол жараёнининг бевосита туристик ресурслар мавжуд жойда амалга оширилиши хисобланади;

- Туристик хизматларга булган талабнинг бозор кон’юнктурасига нисбатан ижтимоий-иқтисодий мухит узгаришига юкори та’сирчанликка эга эканлиги. Бунда туризм сохасида курсатиладиган хизматлар хавфсизлиги узига хос ахамиятга эга булади.

Туризм индустрияси субектлари фаолияти учун кулай шарт-шароитларни шакллантиришга йуналтирилган туризм фаолияти сохасидаги конун хужжатларини ва норматив-хукукий база шаклланмокда. Туризмнинг ривожланишидаги барча тусик ва говларга бархам бериш, виза ва руйхатдан утказиш тартиб-таомилларини, паспорт ва божхона назоратини соддалаштириш, туризм сохасини давлат томонидан бошкариш ва бозорга хос тарзда тартибга солиш механизмини макбуллаштирилмокда. Туризм сохасида тадбиркорлик фаоллигини рағбатлантириш ва туризм хизматлари бозорида ракобатни ривожлантириш буйича чора-тадбирларни хамда, туризм сохасида статистик хисобга олиш тизимини такомиллаштирилмокда.

Хулоса ва таклифлар

Ҳозирги замонавий шароитларда туризм хизматлари бозори фаолиятини кенгайтириш, худудий сайёхлик тизимлари, жумладан туристик кластерлар, туризмга ихтисослашган эркин

худудлар фаолиятини йулга куйиш ва ривожлантириш обектив ахамият касб этган масалалар каторига кирди. Туризм сохасининг тараккиётини та’минлашда “замонавий инновация ва иқтисодий усишнинг сифат омили” булган “кластер” лар фаолиятини самарали шакллантириш обектив зарурият касб этмокда. Бугунги кунда туризмнинг барча йуналишларини ривожлантиришда кластер механизмидан фойдаланиш соха тараккиётини таъминлашда хал килувчи омиллардан бири хисобланади.

Мамлакатда туризмни баркарор ривожлантириш миллий иқтисодиётни мустахкамлашга, туризмнинг замонавий йуналишларини яратишга, туризм инфратузилмасига давлат таъсирининг бошкарувини кучайтиришга, ахолининг турмуш даражасибва фаровонлигини оширишга, экологик хавфсизликни таъминлашга, тарихий хамда маданий ёдгорликларни саклаб колишга, табиатни мухофаза килиш фаолиятининг даражасини оширишга, жамиятнинг маънавий салохиятини оширишга хизмат килади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Узбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Узбекистон Республикасини янада ривожлантириш буйича Хдракатлар стратегияси тугрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. Мрв://лех.уз/досс/- 3107036
2. Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январ.
3. Шильченко Т.Н. Перспективы развития туристских кластеров в РФ // Вестник ТИУиЭ. 2015. № 1 (21). С. 65-70
4. Квартальнов В.В. Стратегический менеджмент в туризме: современный опыт управления: Монография. - М.: Финансы и статистика, 2000
5. Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство. Учебник. -М., 2012.322 с.;

VILOYAT IQTISODIY TARAQQIYOTIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI VA ROLI

Navoiy innovatsiyalar universiteti
1-kurs magistranti
Turdiyev Javlon Bolmuhamodovich

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishi va ochiq iqtisodiyot qurishi yo‘lida jadal rivojlanib, 2015 yilga kelib dunyoning 143 ta davlati tan oldi, jahonning 120 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi, Toshkentda 40 dan ortiq mamlakatlarning elchixonalari ochildi, respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatdi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O‘zbekistonning elchixonalari va konsulllari faoliyat olib bordi[67].

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ular o‘z iqtisodiyotini yuksaltirish jarayonida, albatta, u yoki bu turdagi xorijiy investitsiyalardan foydalanishgan. Bunday tajriba O‘zbekiston Respublikasiga ham xos xususiyat sanaladi. Xorijiy investitsiyalar xalq xo‘jaligi tarmoqlari iqtisodiyotiga jalb etilgan taqdirda bu tarmoqlar rivojlanadi, ya’ni aholi bandligi o‘sadi, tovar xizmatlarining asosiy o‘lchov mezoni bo‘lgan sifat yaxshilanadi, ichki iste’mol bozorlari mustahkamlanadi, davlatga import qilinishi lozim bo‘lgan tovarlar va xizmatlar o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Davlatlararo iqtisodiy yaqinlashuv, siyosiy muzokaralar orqali strategik hamkorlik qilinishining yangi bosqichlariga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasidagi investitsiyalar tuzilmasi va xususiyati takror ishlab chiqarishni kengaytirish dinamikasi va yo‘nalishini belgilab beradi. YAngi korxonalarni qurish, amaldagilarini texnologik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish ishlari olib borilmoqda, yangi ish o‘rinlari barpo etilmoqda[68].

67 Эргашев Қ., Ҳамидов Ҳ. Ўзбекистон тарихи.-Т.: « Ғофур Ғулом», 2015.-.Б. 562.

68 Юлдашев Р. Инвестициявий фаоллик иқтисодиётни ривожлантириш омили. //Жамият ва бошқарув, 2010 № 2-сон.

Hozirgi sharoitda xorijiy investitsiyalarsiz iqtisodiyotni rivojlantirib bo‘lmasligini deyarli har bir ziyoli mutaxassis va xo‘jalik yurituvchi sub’ekt anglab yetganini nazarda tutsak, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb etish bag‘oyat samarali ish ekani yaqqol anglashiladi. SHuning uchun ham bu yo‘nalishga alohida e’tibor bilan qarash va uni rivojlantirishga ahamiyat berilishi zarur.

Mamlakat iqtisodiyotidagi investitsiya faoliyatining rivojlanish darajasi shu mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosati va uning natijasi qanday samara berayotganligi bilan belgilanadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, investitsiya siyosatining maqsadi mavjud investitsiya faoliyatining rivojlanish istiqboliga qaratilishi tabiiydir. Bu maqsad o‘zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda tartibga solishdan iborat bo‘lgan vazifasini ham mujassam etadi[69].

Bugungi kunning talabi ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlashdir. Mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarning faoliyat yuritishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratilgan. 1991 yil O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi[70] va “Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[71], 1998 yil 30 aprelda mamlakatimiz parlamenti qabul qilgan “Xorijiy investorlar to‘g‘risida”[72]gi va “Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[73]gi qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi “To‘g‘ridan–to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ahamiyatini alohida ta’kidlash joiz. Mazkur farmon bilan xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo‘lmagan, yangi tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar 10 yil mobaynida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasida”gi farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012 yilning 2-choragidan boshlab 20 turdagi iqtisodiyot tarmog‘i bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga ham tatbiq etilib, foyda, qo‘shimcha qiymat, mol-mulk va boshqa soliq hamda majburiy to‘lovlar to‘lashdan ozod qilingan[74]. Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar joriy etilishida Samarqand viloyatining o‘rni va mavqei katta.

Samarqand viloyatida xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Samarqand viloyati zamini tabiiy xomashyo va intellektual salohiyatga juda boy hisoblanadi, bunda chet el investitsiyalarini jalb qilishning katta imkoniyatlari mavjud bo‘lib, jumladan:

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash;
Avtomobillar va avtomobillar uchun ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish;
Marmar, granit, albaster, qurilish materiallarini sanoat asosida ishlab chiqarish;
Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
Trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish;
Chorva mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash;
Milliy xalq hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish;
Turizmni rivojlantirish.

---

69 Жўраев А. Инвестиция фаолиятини рағбатлантириш. // Жамият ва бошқарув, 2011 № 4-сон.

70 Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти тўғрисида” ги қонунга ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида. // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашнинг Ахборотномаси. – Тошкент, 1992. 9- сон.

71 Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти тўғрисида” ги қонунга ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида. // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашнинг Ахборотномаси. – Тошкент, 1992. 9 - сон.

72Хорижий инвестициялар тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг Ахборотномаси. – Тошкент, 1998. 6- сон.

73 Ўзбекистон Республикасининг “Хорижий инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чора –тадбирлари тўғрисида”ги Қонуни. //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. – Тошкент, 1998. 6 - сон.

74 Раҳматов Р. Инвестиция киритиш учун имконият кенг. //Зарафшон газетаси, 2013 йил 29 июнь.

Samarqand viloyati sarmoyaviy salohiyati 1991–2016 yillarda tub o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bunday o‘zgarishlarning yo‘nalishi investitsiya kiritilish jarayonlarini o‘ziga xos bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni taqozo etadi. P.SH. Xushbaqov “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi: muammo va ziddiyatlar (Samarqand viloyati misolida)” mavzusidagi tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasida 1991–2001 yillarda Samarqand viloyatiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi[75] to‘g‘risida to‘xtalgan, lekin investitsiyalarning jalb qilinishini alohida bosqichlarga bo‘lmagan. Tarixchi olim U.O. Narzullayev o‘zining “Navoiy viloyatining zamonaviy tarixi va barqaror rivojlanish omillari”[76] mavzusidagi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasida Navoiy viloyatiga investitsiyalarning jalb qilinishini to‘rt bosqichga bo‘lgan, ya’ni birinchi bosqich 1991 – 1995 yillar, ikkinchi bosqich 1996–2007 yillar, uchinchi bosqich 2008–2016 yillar, to‘rtinchi bosqich – 2017 yil va undan keyingi yillar.

FILOLOGIK TA’LIMDA SO’Z O’ZLASHTIRISHNING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Turdiyev Umid-Navoiy Innovatsiyalar universiteti dotsenti
Raximjonova Malikabonu-
Navoiy Innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish 1-bosqich 6 -guruh

So’nggi yillardagi globallashuv sharoiti, boshqa sohalar kabi, til fenomeniga ham o’zining sezilarli ta’sirini o’tkaza boshladi. Bu jarayonda tilning xavfsizligi, rivojlanish tendensiyalari va raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida tilshunoslar tomonidan bajariladigan vazifalar belgilab olindi. Sun’iy intellekt, Internet boshqaruvida yetakchilik qilayotgan va shu orqali o’z innovatsiyalari nomlarini retsipiyent tillarga muntazam ravishda singdirib borayotgan nufuzli tillarning ta’siri qisqa vaqt ichida katta hajmdagi o’zlashmalar ko’lamini hosil qildi. Bunday kon’yunktura uchun tillarning o’zaro aloqasi, ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar, savdo-sotiq, madaniy aloqa, migratsiya, urbanizatsiya, fan-texnikaning rivojlanishi, Internet diskursi, raqamli media va ijtimoiy tarmoq kabilar kuchli ta’sir vositalar hisoblanadi. Ayni paytda bunday omillar leksikasiga jiddiy ta’sir o’tkazuvchi ahamiyatga ega. Jahon tilshunosligida o’zlashma so’zlarning o’rganilishi I.A.Boduen de Kurtene, V.Bets, U.Vaynrayx, L.P.Efremov, N.S.Avilova, E.Xaugen, B.N.Zabavnikov, E.A.Rayst, V.V.Vinogradov, G.G.Timofeyeva, K.Lyutsinskiy kabi tilshunoslarning ishlari bilan bog’liq. O’zlashmalar haqidagi dastlabki fikrlar uzoq davrlarga borib taqaladi. Jumladan, Platonning “Kratil yoki ismlarning to’g’riligi haqida”[77]gi dialogda ham so’z o’zlashtirish haqida ma’lumotlar mavjud.

Rus tilida esa bu mavzu tarixi haqida tugal fikr-mulohazalarni L.P.Efremovning nomzodlik dissertatsiyasida uchratish mumkin. U o’zlashtirishning asosiy belgilarini tahlil qilgan, so’z o’zlashtirish va kalkalash hodisalarini farqlashga uringan tadqiqotchi hisoblanadi[78]. 60-yillar tadqiqotlarida “so’z o’zlashtirish”, “o’zlashma” terminlarining ishlatilishi o’ziga xos pallaga kirdi. Bu bilan bog’liq masalalar L.P.Krisin[79], A.V.SHcherba80ning ilmiy tadqiqotlarida ham tahlilga torilgan.

75 Хушбақов П.Ш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши: муаммо ва зиддиятлар (Самарқанд вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2007.– Б. 20.

76 Нарзуллаев У.О. Ўзбекистон Республикаси Навоий вилоятининг замонавий тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – Б. 57.

77 Античные теории языка и стиля (антология текстов) / Под ред. О.М. Фрейденберг. – СПб.: Алетейа, 1996. – – С. 49.

78 Ефремов Л. П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Алма-Ата: 1959. –С. 18.

79 Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М., 1968. –С. 39

80 Щерба Л.В. О понятии смешения языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике. Т. 1. – Л., 1958. –С. 44

Aynan o’zlashma (zaimstvovaniye) termini V.M.Aristovaning ishida nafaqat “o’zga tildan o’tgan so’zni ko’rsatishi, balki qabul qiluvchi tilga to’la ma’noda o’zlashgan so’z”[81] sifatida e’tirof etildi.

Turli olimlarning o’zlashmalar mavzusida olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlari A.Kazkenovaning “O’zlashma so’z ontologiyasi” nomli monografiyasida jamlanib o’rganildi. Unda so’z o’zlashtirish nazariyasining rivojlanish tarixi ilk davr (XIX asr – XX asr boshlari), birinchi bosqich (XX asrning 20-yillaridan 60-yillarigacha), ikkinchi bosqich (XX asrning 60-yillari oxiri – XX asr boshlari)[82]larga ajratib tahlil etilgan.

Turkiy tilshunoslikda ham o’zlashma so’zlarning o’rganilishi uzoq tarixga ega. Jumladan, Mahmud Koshg’ariy “...tilda mavjud so’zlar o’rnida boshqa til so’zini qo’llashni zararli deb hisoblaydi”[83]. “SHajarai tarokima” asarida esa “...bizdin burun turkiy tarix aytqanlar. Arabiy lafzlarini ... va forsiyni ham qo’shub tururlar, ... o’zlarining hunarlarin va ustodliqlarini xalqg’a ma’lum qilmaq uchun”, deya ta’kidlanadi.

XX asr boshlarida ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlar o’laroq so’z o’zlashtirish jarayoni jadallashdi va tilga e’tiborli jadid ziyolilar esa bunga o’z vaqtida faol munosabat bo’ldi. Elbek tomonidan matbuotda 550 ta turkiy so’z o’z muqobillari bilan birga e’lon qilindi84. Bundan ko’zlangan maqsad arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan o’zlashma so’z, terminlarga adekvat o’zbekcha muqobil topish edi[85]. A.Fitrat ham boshqa tillardan so’z olish uslubning sofligiga zarar berishini e’tirof etdi[86]. Mavzu haqidagi yangicha ilmiy qarashlar yaratilgan o’quv adabiyotlarida ham aks etib bordi. O’zbek tilida neologizmlarni ilmiy planda o’rganish asosan XX asrning 60-yillaridan boshlandi. Keyingi davrlarda mavzu bilan aloqador maqola, dissertatsiyalar ko’zga tashlansa-da, o’zbek tilshunosligida bevosita neologizmlar masalasini tadqiq etishga bag’ishlangan maxsus ilmiy tadqiqot ishi yaratilmadi.

O’tgan asrning 40-yillariga kelib o’zlashma so’zlar masalasi o’zbek tilshunosligining o’ziga xos ilmiy muammosi sifatida tadqiq etila boshlandi. Bu masala arabcha, fors-tojikcha, ruscha va boshqa tillar kesimida F.Abdullayev, T.I.Rahmonov B.Eshonqulov, J.Hamdamov I.Asfandiyorov, E.Begmatov, A.Hojiyev, R.Jomonov kabi olimlarning ishlarida tadrijiy ravishda tadqiq etildi, o’rganildi. O’zlashma so’zlar ilk bor O.Usmonovning “Qisqacha internatsional so’zlar lug’ati” (1959), keyinchalik O.Usmonov, R.Doniyorovlar hammuallifligidagi “O’zbek tilidagi ruscha-internatsional o’zlashtirma so’zlar izohli lug’ati” (1965) sifatida jamlanib shakllantirildi.

E.Begmatovning “Hozirgi o’zbek adabiy tilining leksik qatlamlari”, hammualliflikda yozilgan “O’zbek tili leksikologiyasi”, A.Hojiyevning “Sovet davrida o’zbek adabiy tilining taraqqiyoti”, M.Mirtojiyevning “O’zbek tili leksikologisi va leksikografiyasi”, A.Madvaliyevning “O’zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari” asarlarida o’zlashma so’zlar bevosita tadqiq etildi. SHu bilan birgalikda, D.Hasanova, A.To’raxojayeva, U.Qo’ziyev, SH.Jo’rayev, A.Xudoykulov, N.Isakova, E.Davlyatova, S.Ruzmetov kabilarning tadqiqotlari bevosita va bilvosita mustaqillik davri o’zlashmalari tadqiqiga bag’ishlangani bilan ahamiyatli hisoblanadi. Istiqloldan so’ng yevropa tillaridan to’g’ridan-to’g’ri so’z olish jarayoni jadallashdi. Bu o’zlashmalar ko’proq inglizcha so’zlar misolida namoyon bo’lyapti.

O’zbek tili leksikasi genetik manbalariga ko’ra o’z va o’zlashma qatlam so’zlaridan iborat. “O’zbek tilining izohli lug’ati”dagi jami so’zliklar soni 32549 ta bo’lib, o’z qatlam 20437, o’zlashma qatlam esa 12112 leksemadan iborat. Lug’atda 29 manba til birliklari asosida shakllangan o’zlashtirmalar leksikaga to’g’ridan-to’g’ri yoki vosita til orqali o’zlashgan. SHuningdek, leksikada o’zlashmalarning tillar kesimidagi hissasi ham o’zaro farqli ko’rinish kasb etgan. Tilning zaxira boyligida forscha, arabcha, lotincha, yunoncha, fransuzcha, ruscha, inglizcha, nemischa, italyancha

81 Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв //Высшая школа. – 1978. –С. 58.

82 Казкенова А. К. Онтология заимствованного слова. Москва. – Флинта, 2013. –С. 9

83 Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 36.

84 Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2002. –Б. 15.

85 Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2002. –Б. 15.

86 Фитрат А. Танланган асарлар. V жилдли. IV жилд: дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар – Тошкент: Маънавият, 2006. **–Б. 47.**

so’zlarning miqdori kattaroq bo’lsa, gollandcha, ispancha, mo’g’ulcha, polyakcha, hindcha, yaponcha, xitoycha, turkcha, ukraincha, fincha, shvedcha, malayyacha, islandcha, chexcha, yahudiycha, gruzincha, vengercha, norvegcha, rumincha so’zlar nisbati esa anchayin past.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da 3549 ta forscha, 3473 ta arabcha so’z izohlangan. Forscha so’zlarning o’zbek tili lug’at boyligiga kirib kelishi arabcha so’zlarga qaraganda qadimiyroq bo’lib, ko’pchiligi xalq turmush-tarzi bilan bog’liq kundalik muloqot so’zlariga aylanib ulgurgan. Arabcha o’zlashmalarning salmoqli qismi ta’lim-tarbiya va madaniy-ma’rifiy mazmundagi birliklardir. Leksikadagi arabcha so’zlarning boshqalaridan farqli xususiyati ularda barqarorlashgan “algoritmik” tuzilishning mavjudligidir. Ayniqsa, bunday o’zlashmalarning ko’proq uch undoshlililigi hisobga olinsa, muayyan qoliplar muntazamligida arabcha asosdosh o’zlashmalar assotsiatsiyasi paydo bo’ladi. Bu esa leksikografiyada **arabcha genetik asosli o’zlashma so’zlar** lug’atini tuzish mumkinligini asoslaydi.

E.Begmatov o’zbek tilining so’z yasash jarayonida ishtirok etuvchi arabcha-forscha so’zlarni shartli ravishda ichki resurs sifatida baholash kerak, deb hisoblaydi. Akademik A.Hojiyev sobiq sovet davri o’zbek tili taraqqiyotida leksikaning istiqboli semantik kalkalash orqali yangi so’z hosil qilinishi bilan alohida bog’liq bo’ldi, deb qaraydi va uni tilning ichki imkoniyatlari asosida boyitish yo’li[87] sifatida idrok etadi. E.Begmatov o’zbek tili leksikasining o’z baza, o’zga baza, kalkalash bazasi kabi uch lug’aviy bazaga tayanishini, shunga ko’ra o’zbek tili lug’at boyligidagi so’zlarni o’z qatlam so’zlar, o’zlashma qatlam so’zlar va leksik kalkalar kabi sektorga bo’lish o’rinliligini yozadi[88]. Keyingi davr manbalarida ham aynan shunday yondashuv ommalashgani kuzatiladi.

Hozirgi o’zbek tilining katta hajmdagi imlo lug’atiga 85000 so’z kiritilgan. Leksikadagi so’zlar miqdorining aniq chegarasi bu miqdor bilan belgilanmaydi. YAna lug’atga shakllantirilishi zarur bo’lgan yangi o’zlashmalar, soha terminlari, shuningdek, ma’rifiy-irfoniy, badiiy uslubga xos ko’plab birliklar ham mavjud. SHularni hisobga olganda o’zbek tili leksikasining umumiy miqdori katta raqamlarni tashkil etishi taxmin qilinadi.

20-asrning oxirlaridan boshlab nafaqat o’zbek tiliga, balki sobiq ittifoq tarkibidagi turkiy tillarga so’z o’zlashtirishda rus tilining vositachilik roli passivlashib, to’g’ridan-to’g’ri so’z o’zlashtirish jarayoni faollashdi[89]. SHunga muvofiq globallashuv sharoitidagi virtual makon ta’sirida inglizcha so’zlar bilan “to’yingan” Internet fenomeni motivlovchi omil vazifasini bajaryapti.

FILOLOGIK MATN MAZMUNINING KOGNITIV ASOSLARI

Turdiyev Umid- Navoiy Innovatsiyalar universiteti dotsenti
Norbekova Gulshoda -
Navoiy Innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish 1-bosqich 6 -guruh

Matnning mavqeini aniqlashda Ferdenand de Sossyur tomonidan shakllantirilgan «til va nutq» dixotomiyasiga tayanayotgan tilshunoslarning bir guruhi ushbu dixotomiyani yangicha, ya’ni sistema – matn qarama-qarshiligida talqin qilishga harakat qilishsa, boshqalari matn va gap hodisalari o‘rtasidagi muvozanat, o‘xshashlikni izlaydilar. Natijada ular tahliliga yondoshlik (parallellik) va izomorflik (bir xil xossalarga ega bo‘lish) nuqtai nazaridan qarash hamda ularni yagona bir umumiy sath doirasida tavsiflash holatlari yuzaga keladi. Bunga misol sifatida gap va matnni bir pog‘onadagi birliklar (ba’zilar «til birligi» yoki «semiotik belgi» deyishsa, boshqalari ikkalasini ham nutq sathiga joylashtiradilar) deb isbotlash borasidagi urinishlarni keltirishimiz mumkin. Agarda biz nutqni til sistemasi yordamida yoki aynan shu sistemaning o‘zi tomonidan yaratiladigan mahsulot deb qaraydigan bo‘lsak, unda beixtiyor uning (nutqning) matnlar yig‘indisi (to‘plami)dan iborat ekanligini e’tirof etgan bo‘lamiz. Ammo til tizimiga «nutq voqelanishi uchun moddiy material», «xomashyo» bilan ta’minlovchi zahira nisbatlarining berilishi [Xayrullayev] til va nutq bog‘liqligini nihoyatda

87 Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясалиши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1988. –Б. 139.

88 Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари, –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 103.

89 Мирзоева Г. Английские заимствования в тюркских языках. Науковий журнал “Молодий вчений”. Херсон. №12 (88) 2020. –С. 71. https://doi.org/10.32839/2304-5809/2020-12-88-15

oddiy munosabatlar sifatida, soddalashtirilgan holda tasavvur qilishga olib keladi. Nutqning matn bilan tenglashtirilishi esa matn hodisasiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan ba’zilarining inkor etilishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, matnning mazmunan yaxlitlik va shaklan chegaraga egalik xususiyati uning alohida kategoriya sifatida boshqa tuzilmalardan farqlanishini ta’minlashi haqida turli fikrlar mavjud. Kategorial belgilar tavsifisiz biror birlikning (uning til yoki nutq tizimiga oid bo‘lishidan qat’iy nazar) tub mohiyatini yoritish yo‘lidagi har qanday harakat kutilgan natijani bermaydi. Shunday ekan, matn mohiyatini belgilashda uning murakkab lisoniy yaxlitlik ekanligini va «lisoniy voqelik»ning muhim qismi bo‘lishini unutmaslik lozim. Til va nutq hodisalarining semantik va kommunikativ-pragmatik mohiyati haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan I.P.Susov matnning lisoniy voqelikda tutgan o‘rnini quyidagicha belgilagan edi: «obyektiv borliq – ijtimoiy hayot – kommunikatsiya – matnlar – lisoniy vositalar tizimi». Demak, matn ushbu qatorda kommunikatsiya va til tizimi o‘rtasidagi oraliq o‘rinni egallaydi. Ta’kidlash o‘rinliki, u bir paytning o‘zida lisoniy voqelikning turli sathlariga oid xususiyatlarni mujassamlashtiruvchi hodisa. Bunday holatda matn mazmunining kommunikativ-pragmatik xarakterga ega bo‘lgan modal, temporal, emotiv qatlamlari e’tibordan chetda qoladi.

Matnning qo‘llanishi ma’lum ijtimoiy muhit bilan bog‘liq ekanligi faqat ushbu hodisaga kommunikativ-pragmatik yondashuv sharoitidagina inobatga olinadi. Bu holda matn «predmet (tayyor mahsulot-S.B.) ko‘rinishida emas, balki so‘zlovchi, tinglovchi harakati va ijtimoiy-kommunikativ muhit doirasidagi jarayon sifatida talqin qilinadi». Uning fikricha, so‘zlovchi (S), tinglovchi (T), referent, ya’ni voqelik parchasi (R) va matn (M) munosabatlari yagona bir dinamik tizim – «kommunikativ-ijtimoiy maydon»ni tashkil qiladi.

Matn kommunikativ mazmunining shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, u xuddi shu maydon doirasida kechadigan alohida munosabatlarning birikuvini taqozo etadi. Masalan, M – R (matn-referent) munosabati axborot mazmunining negizini tashkil qiladi, M – S (matn-so‘zlovchi yoki muallif) munosabati esa bir tomondan, matnning so‘zlovchi (muallif)ning muloqot faoliyati natijasida yuzaga kelgan hosila ekanligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan, muallifning bayon qilinayotgan voqea haqida o‘z sub’ektiv fikrini bildirayotgan, uni baholash, ma’qullash kabi maqsadlarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan faol shaxs ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, M – T (matn-tinglovchi yoki o‘quvchi) munosabati axborot uzatish yo‘li bilan tinglovchiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini hosil qiladi. Keyingi bosqichlarda ushbu munosabatlarning yanada murakkablashib borishi kuzatiladi va shu murakkablashuv jarayoni kommunikativ mazmunning ko‘p qirraliligini ta’minlaydi. Lekin izohlanayotgan munosabatlar qanchalik ko‘p bosqichli, murakkab bog‘liqliklar ko‘rinishiga ega bo‘lmasin, ularning negizida muallifning muloqotdan ko‘zlangan ma’lum maqsadi, ya’ni intensiyasi yotadi. Zero, I.P.Susov ta’kidlaganidek, «muallif intensiyasi tushunchasi matn va umuman, kommunikativ harakatning inson faoliyati, insonlarning borliq bilan o‘zaro munosabatlari maydonidan o‘rin olishini belgilaydi».

Matnning kognitiv tahlil obyekti sifatida e’tirof etilishi uning tabiati haqidagi tasavvurlarning ham ma’lum darajada o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Natijada I.P.Susovning matn tabiatan ikki jihatga ega («tekst dvulik po svoyey prirode», degan tavsifi bugungi kunda tadqiqotchilarni qoniqtirmay qo‘ydi. Matnning ko‘p jihatli va ko‘p qirrali hodisa ekanligi tinimsiz ta’kidlanayotgan bir paytda, biz matnning lisoniy voqelikda tutgan o‘rnini tasvirlovchi zanjirga yana bir halqani qo‘shishni ma’qul ko‘rgan bo‘lar edik va bu xalqa voqelik haqidagi tasavvurning konseptuallashuvidir. Kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq uslublarining matn tahliliga tatbiq qilinishi, birinchi navbatda, matnning kommunikativ tizim va umuman, insonning borliq haqidagi bilimining asosiy unsuri sifatida e’tirof etilishi bilan bog‘liq. Bunday e’tirof esa, o‘z navbatida, tadqiqotchilar e’tiborining matnning ichki tuzilishi, strukturaviy xususiyatlaridan uning yaratilishi va mazmunan idrok etilishi jarayoniga ko‘chishiga sabab bo‘ladi.

Xullas, muloqot maqsadining kommunikativ faoliyat maydonida tutgan o‘rni muhim, intensiya muallif oldiga lisoniy birliklarni muloqot vaziyatiga mos ravishda tanlash vazifasini qo‘yadi va shu tanlov «kommunikatsiya jarayonining, lisoniy munosabatlarning effektiv, ya’ni samarali bo‘lishini oldindan belgilaydi».

СОҒЛОМ ФИКРЛАШ СОҒЛОМ ТУРМУШНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНИДИР

Чинмирзаева Садоқат Раҳмонқуловна-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги техникуми
бош ўқитувчиси

Кириш. Саломатлик бу табиатнинг берган энг катта ва бетакрор тухфасидир. Соғлом одам аввало уз ҳаётини, турмуш тарзини тўғри баҳолай олади ва атрофидагиларни ҳам шунга даъват этади. Инсонни уз орзу мақсадларига, интилишлари ва муваффакиятларга эришишида уни тўғри фикрлаши, уз фаолиятини тўғри ташкил эта билиши муҳим. Бу инсондан катта иродавий зур беришни, уз устида ишлаш ва назоратни талаб этади. Соғлом турмуш тарзи ва руҳий саломатлик одамнинг табиий ва органиқ эҳтиёжига айланиши лозимки, у ушбуларга онгли, ихтиёрий тарзда бутун ҳаёти мобайнида риоя этмоги лозим.

Руҳий саломатлик нафақат тан-вужуднинг гигиенасини, балки маънавий соҳани, ахлоқий нормаларга нисбатан соғлом фикрлаш билан боғлиқ психогигиенани, уз-узини тарбиялашни назарда тутади. Шу боис ҳам болани илк ёшликдан соғлом турмуш тарзига ургатиш лозим. Уларда энг аввало соғлом ва узоқ яшашга мослашишни шакллантириш керак. Инсон саломатлиги 50 фоиздан зиёд ҳолатларда унинг турмуш тарзига, 20 фоизи наслий омилларга, 20 фоизи экологияга, яъни атроф-муҳит таъсирларига, 10 фоизи - тиббий ёрдамнинг самарадорлигига боғлиқ экан. Турмуш тарзи деганда, одатда, одамларнинг моддий ва маънавий эҳтиёжларини кондириш билан боғлиқ булган, одатга айланган, барқарор хулқ-атвор ва муомала нормалари тушунилади. У ўз навбатида одам организмнинг муайян ритм ва кўникмаларга эга булиши орқали саломатлигини маълум меъёрларда ушлаб туриш, чиникиш, дам олиш ва хулқини оқилона ташкил этишга ўрганиб қолишини таъминлайди.

Инсон яшар экан, ҳаётининг маълум палласида тақлид қилиш, ижтимоий тажрибаларни ўзлаштириш эҳтиёжига дуч келади. Лекин мана шу тақлид жараёни хар доим ҳам ижобий мазмун-мохиятни акс эттирган, ижобий хулқ кўникмаларини шакллантиришга йўналтирувчи кучга эга булмайди. Куп холларда салбий иллатларни, носоғлом турмуш тарзини оддийгина куринган тақлид жараёни хосил қилади. Ана шундай куринишларидан бири тамаки маҳсулотлари ва спиртли ичимликларга ружу қўйишдир.

Психологик шахс типларига мувофик, турли кунгилхушлик учун спиртли ва наркотик моддалар истеъмолига мойил кишилар энг пассив тип вакиллари ва иродасиз, катъиятсиз табиатли кишиларга тўғри келади.

Иродасиз йигит ва қизлар олдин шунчаки «вақтичоғлик» учун оз-оздан ичадилар кейинчалик бундай вақтихушликнинг кармогига илиниб колганларини узлари ҳам сезмайдилар. Кейинчалик бу маънавий жиҳатдан карамликни юзага келтиради.

Психология фанида одамларни асосан икки тоифага булишади - “А” ва “Б” тоифалар.

Биринчи тоифалиларда масъулият хисси шу кадар кучлики, улардаги мақсад ва омадга, муваффакиятга интилиш ҳаётининг мазмунига айланган, улар узларини хурмат килувчи кишилар. “А” тоифадагилар ута ишчан, ҳамиша узларини нима биландир банд кила оладиганлар булиб, улар одатда дам олишни билмайдилар, яъни буш вақтда саломатлигини тиклаш, асабларга тин бериш одатини тез-тез бузадилар.

Иккинчи - “Б” тоифалилар эса бошқача: улар босиқ, вазмин, хеч шошганини курмайсиз, ўзларига унчалик катта масъулият ҳам олмайди, қўшимча вазифаларни ҳам олмайди. Лекин дам олишга келганда, улар жуда уста, тиникиб ухлашни яхши куради.

“Б” типлар атайлаб таътиллар олиб, унда пухта ишлаб чиқилган жадвал асосида дам олишни яхши куришади, бу ишга оила аъзоларини ҳам жалб этади, шу хислати билан уларни ҳам авайлайди. Бирор ишни қилиш керак булса, шошмай, секин, вазминлик билан бошлайди, саросимага тушмай бажаради, қийинчилик ва ташвишларга чидамли, ҳаётдаги турли машмашаларни ҳам босиклик билан қабул қилади.

Иккала тоифа вакилларида ҳам саломатлигини узи асраши учун имконият, захира мавжуд, умумийлиги шундаки, иккаласи ҳам ҳаётдаги йулини аниқ тасаввур қилади, умумий талаб шўқи, уларнинг маъанавияти бой булиши керак. Чунки руҳан соғлом одам ҳамиша аниқ-

равшан қарорлар қабул қилади, бу қарорлар одатда жамият нормаларига, купчилик эътироф этган ахлоқ қоидаларига зид булмайди. Умуман, бу уринда яна бир бор шахс маънавияти ва ахлоқий киёфасининг унинг саломатлигига бевосита боғлиқлигини таъкидлаш жоиз. Зеро, маънан пок инсоннинг хар бир хатти-харакати, меҳнати, тутумлари хеч кимнинг манфаатига зид булмайди

Руҳий саломатлик орқали жисмоний саломатликни ҳам сақлаш ва бошқариш мумкинлиги гояси янги булмай, у XX аср бошларидаёқ психолог ва психиатр мутахассислар диккатини узига тортган. Олимлар шуни таъкидлашганки, соғлом инсон бемордан фаркли равишда ўзидаги жами психик жараёнлар, ҳолатлар ва қобилиятларни бошқариши мумкин.

Шахс томонидан саломатликни психологик нуқтаи назаридан бошқариш ўз ичига қуйидаги босқичларни олади: мақсад-муддаони қўйиш, ўзидаги мавжуд маълумот ва ахборотларни таҳлил этиш, мустакил қарорлар қабул қилиш, ижросини таъминлаш ва назорат қилиш. Ҳар бир алоҳида босқичда шундай узига хос жараёнлар рўй берадики, улар охир-окибат саломатликни таъминлайди. Масалан, одамнинг уз олдига аниқ ҳаётий мўлжалларни куя олиши, келгусида қандай касбкорга эга булишига оид аниқ тасаввурларнинг мавжудлиги, ҳаётда тасодифан қандайдир мавкега эга булиш эмас, балки уз саъйи-харакатлари, ҳаётий интилишлари туфайли ўрнини топишини англаши кабилар ута муҳим булиб, инсоннинг саломатлиги, узини яхшилар орасида яхши хис қилишни таъминлайди.

Психологик саломатликка таҳдид солувчи омилларга энг аввало қуйидагиларни киритиш мумкин:

ҳаётий мулжалларнинг нотўғри танланганлиги; турмуш тарзининг пала-партишлиги; интеллектуал салохиятнинг пастлиги; муомала маданиятининг пастлиги; ёктирган машғулот билан шугулланмаслик.

Буларнинг барчаси аслида келиб чиқиш нуқтаи назаридан организмимиздаги физиологик, биологик жараёнлардан кура, бевосита шахсимизга боғлиқ булган ижтимоий омилларнинг хусусиятларидан келиб чикади.

Соғлом турмуш тарзини тарғиб қилинишини аввало тўғри фикрлашдан бошлаш лозим. Бизни фикр юритишимиз, уз ҳаётимизга тўғри муносабат билдиришимиз, эртанги кундаги келажагимиз учун кайгуришимиз мавжуд эмас экан, бу хол узгалар назоратидаги хатти-харакатимиз билан тўғриланмайди. Доимий жисмоний фаоллик инсонни куч- ғайратга ундаш билан бирга, уз-узига булган ишончини ҳам шакллантиради. Оила муҳитида ота-она узи ибрат тарикасида фарзандини соғлом турмуш тарзи ва соғлом фикрлаши билан тарбияласа, бу кадрият бола учун ҳаётининг ажралмас бир қисмига айланиб колади. Бугунги кундаги соғлом ҳаёт кечиришга жисмонан ва руҳан тайёр булиш масаласи давлат сиёсати доирасида аҳамият берилаётган масалалардан биридир. Ўз имкониятларига холис баҳо бера оладиган ва ҳаётдаги турли қийинчиликларни ўз иродаси, жисмоний меҳнатлари ва тўғри хулоса қила олиши билан руҳан узини узи бошқариш орқали енга оладиган кишиларда турли хасталикларга нисбатан чидамлилик юқори даражада булади. Инсондаги руҳий ҳолат мустаҳкам булса, жисмоний ҳолатини бошқариш, ундан самарали фойдалана олиш имконияти кенгаяди.

Шу маънода эртанги кун ворисларини тарбиялаш баробарида уларда маънавий етукликни, турмуш тарзини тўғри режалаштира олиш маданиятини шакллантиришга ҳам эътибор беришимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гозиев Э. F. “Ёш психологияси ва педагогик психология” дарслик 1-2 китоб.Т. 2014
2. Zionet.uz.библиотека.book. Ёш психологияси ва педагогик психология.

ИЧКИ КАСАЛЛИКЛАР ҲАҚИДА КЛИНИК ФИКРЛАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Хасанова Фароғат Аблаяровна-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги техникуми бош ўқитувчиси

Ички касалликлар пропедевтикаси тиббиёт олийгоҳлари талабаларининг клиник фаолиятига, жумладан клиник фикрлаш ривожланишининг дебочасидир. Ушбу босқичларда фундаментал билимларга асосланган тиббий, амалий кўникмалар талабалар онгига жойлаштирилиши зарур. Ички касаллликлар пропедевтикаси фанини ўқитиш ва ўзлаштириш жараёнида талабаларнинг нормал ва патологик анатомия, гистология, биокимё, нормал ва патологик физиология, микробиология фанларидан чуқур билимга эга булишлари муҳим аҳамият касб этади. Беморни клиник текшириш натижаларини фундаментал фанларни ўрганишдан олинган билимлар билан боглаш қобилияти клиник фикрлашнинг шаклланишига асос булади [2, 3]. Клиник фикрлаш бу -муваффақиятли тиббий фаолиятнинг калитидир. Ушбу турдаги фикрлаш беморнинг ахволини яхлит, бир бутун организм сифатида баҳолаш имконини бериб, унинг барча хусусиятларини ҳисобга олган холда, касалликни маълум бир бемор оргпнизми билан узаро таъсирлашаётган жараён деб ҳисоблайди. Ушбу махоратнинг ривожланиши олийгохларда фундаментал фанларни мукаммал ўзлаштириш орқали юзага келади ва шифокорнинг ҳаёти давомида шаклланиб боришда давом этади. Етук тиббий кадрлар тайёрлашнинг замонавий тизими куп жиҳатдан талабаларга ҳажм жиҳатдан билим беришга каратилган.

Куп сонли узига хос беморларда умумийликни ажратиб кўрсатиш ва зарур назарий билимларни қўллаш клиник фанларни ўқитишнинг мақсади ва шу билан бирга шифокорлик кўникмаларини шакллантиришнингэнг муҳим муаммоларидан биридир.

Урта таълимда, айникса, тест орқали баҳолашнинг кенг жорий этилиши, фикрлаш ҳамда тафаккур этишнинг дедукция, индукция таҳлил этиш, синтез қилиш каби усулларини ва гипотезани илгари суриш қобилиятини ривожланишига эҳтиёж колдирмади. Ушбу усулларни ўзлаштирмасдан туриб эса клиник фикрлаш мумкин эмас ва купчилик талабалар тиббий фаолиятнинг амалий кўникмаларини эгаллаш билан бир қатордаюорида кайд этиб утган фикрлаш усулларииўзлаштиришларига тўғри келади. Агар бунга клиник фанларни, жумладан ички касалликлар пропедевтикаси фаниниўқитиш жараёнида талабалрада клиник фикрлаш методикаси мавжуд эмаслигини ҳам кушсак, уни шакллантириш муаммосини хал қилиш янада мураккаблашади [1, 3].

Ички касалликлар пропедевтикаси фанини ўрганиш жараёнида илк бор клиник булимга келган талабаларимиз бир қатор қийинчиликларга дуч келишлари табиий. Катта ҳажмда нотаниш атамалар билан тулган маълумотлар окими, касалликларни, уларнинг патогенези ва клиникасини мукаммал билмаслик, бемор билан ишлашда хали етарли даражада ўзлаштирилмаган физикал текширув усулларидан фойдаланиш, беморга шахс сифатида мурожаат қилишнинг қийинлиги туфайли узига ишончсизлик юзага келиши кабилар шулар жумласидандир.

Ички касалликлар пропедевтикаси фанини талабаларга ўқитиш жараёнида клиник ва фундаментал фанлар уртасидаги фанлараро интеграция муаммосини кучайтирмаслик мақсадида маййян касалликлар симптоматологияси пропедевтика машғулотларида ўрганилганда, талабалар патологик анатомия, патологик физиология ва гистология булимларида олишлари керак булган ушбу патология ҳақидаги маълумотларга ҳам эга булишлари зарурдир. Ва шундагина талабалар тўқималарда содир булаётган нарсаларни клиник белгилар билан боғлай оладилар. Акс холда юқори курсларда пропедевтика фан дастурига мувофик клиник симптомлар асосларини чуқур ўрганиш учун мулжалланганлиги боис клиник ва фундаментал фан уртасидаги интерацияланиш жараёни, яъни клиник фикрлаш шаклланмай қолиш эҳтимоли ортади.

Симптомларни синтез қилиш ва таҳлил қилиш учун уларнинг мохиятини, патогенетик

асосини тушуниш лозим. Соғлом ва касал одам организмида юз берадиган жараёнлар ҳақида чуқур фундаментал билимлар зарур. Шундагина касалликнинг патогенетик жараёни ва уни даволаш асослари ҳақида тушунча тугилади, фақатгина тушунарсиз маълумотларни ёдлашга асосланмаган холда чуқур ва мустаҳкам билим шаклланади.

Ўқув жараёнини модернизациялашга уринишлар купинча ўқитишнинг замонавий техник воситаларидан ва иллюстратив материалдан максимал даражада фойдаланиш истагини юзага келтиради, аммо бу клиник фикрлашни шакллантириш муаммосини хал килмайди.

Ички касалликлар пропедевтикаси кафедраси касалликни фаол билиш усулларини ургатади, касаллик симптомлари ва синдромларини аниқлаш ва англаб олишни ургатади, шу маълумотлар воситасида бемордаги касаллик ҳақида тасаввур пайдо булиш асосини ташкил этади.

Диагностика жараёни бемор билан илк муносабатданок, унга нигох ташлаш биланок бошланади. Шундай килиб, клиник фикрлашнинг ривожланиши беморни текшириш усулларини ишлаб чиқиш билан ҳамрох равишда ички касалликлар пропедевтикаси фанинини ўзлаштириш жараёнида бошланиши лозим.

Шундай килиб, қуйибосқич талабаларида клиник фикрлашни ривожлантириш ўқув жараёни учун рагбатни оширишга имкон яратади ва фундаментал фанларни чуқуррок ўрганиш истагини кучайтиради.

Адабиётлар рўйхати

1. Бодрова Т.Н., Тетенев Ф.Ф., Калинина О. В. Диагностика назариясини илмий клиник фикрлашнинг шаклланишига таъсири / / Фундам. тадқиқот. 2011. 10 - б. 481-484.
2. Гуляева Н.И., Березина Е.А. Талабаларда клиник фикрлашни шакллантиришда гистологиянинг роли. Амалий Фанлар ва асослар журнали. тадқиқот. 2010. №. 8. б. 118119.
3. Кузнецов Г.Р. Тиббий (клиник) фикрлашни шакллантиришнинг окилона усули. Даволаш факультетининг даволаш булимларида (III, IV курсларда) ички касалликларни ўқитиш тажрибаси / / Соғлиқни сақлаш. 2013. 9-сон. бб. 52-56.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИДА “ҲИССИЙ ЧАРЧОҚ”НИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ

Хасанова Дилшода Ўктамовна-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги техникуми етакчи ўқитувчиси

Муаммонинг долзарблиги. Кундалик ҳаётда биз тез-тез касбий стресс, ҳиссий ва касбий чарчаш синдроми феноменига дуч келамиз. Кўп жиҳатдан, бу одамлар билан узаро муносабатлар билан боғлиқ булган касблар учун хос ҳисобланади. Бундай касбларга қаторига ўқитувчилик касби ҳам киради. 2020 вокеалари, COVID-19 пандемияси шартларини ҳисобга олиш зарур булганда, уз-узини изоляқия қилиш чораларини кучайтириш нафақат педагогик жамоа учун янги талабларни, масалан, масофавий таълим технологияларидан (бундан кейин МТТ деб аталади) фаол фойдаланиш нуқтаи назаридан, балки илгаригидек харакат қилиш мумкин булмаган ва янги усул-электрон таълимда қандай харакат қилиш хали аниқ эмас эди. Бу қисқа вақт ичида ва деярли услубий ва технологик таъминотсиз содир булди. Бугун шуни таъкидлаш керакки, бир неча ой ичида масофавий электрон таълимнинг жиддий тажрибаси аниқланди. Замонавий шароитда электрон таълим ҳам долзарб, ҳам зарур ривожланиш тенденқиясига айланди.

Буларнинг барчаси ўқитувчиларнинг психо-эмоционал ҳолатига таъсир кўрсатади ва таълим муҳитининг психологик ва педагогик хавфсизлигини таъминлаш учун профилактик чора-тадбирларни жорий этишни талаб қилади.

Биринчи марта 1974-йилда америкалик психиатр Херберт Фреуденбергер томонидан касбий соҳага нисбатан “ҳиссий чарчоқ” атамаси (staff burnout) киритилган [8]. Кейинчалик эса ушбу синдром бир қатор хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан текширилиб, бу ходиса нафақат касбий, балки ҳаётнинг бошқа соҳаларига ҳам таъсир кўрсатшини илмий асослашган. ХКТ-10 (МКБ-10) касалликларининг халкаро таснифига кура, бу синдром - чарчоқ, ҳаётий

кучларнинг чарчаш ҳолати расмий ташхис билан белгиланган (Международная классификақия болезней 10-го пересмотра (МКБ-10)) [4].

Ҳозирги кунда психология, психиатрия ва неврология соҳасидаги тадқиқотчилар ҳиссий чарчашнинг асосий сабаби стресс булиб, унинг таълимотининг асосчиси физиолог Ганс Селе ҳисобланади. Стресс тушунчаси Л. А. Китаев-Смыйк монографиясида батафсил тасвирланган. Стресс бу - тананинг носпецифик реакциясига олиб келади ва ташқи муҳит таъсирига эволюция жараёнида пайдо бўлган мослашувдир [2]. Ҳиссий стресс ҳозирги вақтда узгарувчан ва таъсирчан шароитларга мослашувчан булган кенг куламли аклий кўрсаткичлар сифатида тушунилади [2]. Инсон учун аҳамиятли булган ташқи омиллар организмда икки хил стрессни келтириб чикаради: эустресс (уйгунлик ва куч-кувват, энергия ортиши, иш қобилиятининг самарадорлигини ошириш шаклида узини намоён қилади) ва гамгинлик (дистресс) (зўриқиш, чарчоқ, таъсирчанлик хусусияти натижасида меҳнат самарадорлигининг пасайиши билан намоён булади). Эмоционал ғамгинликнинг узоқ вақт таъсир қилиши эмоционал толиқишга ва натижада касбий толикишга олиб келиши мумкин [7].

Жамият ва давлат хавфсизлигини таъминловчи органлар ходимлари, тиббий, ижтимоий ва психологик хизматлар ходимлари каби "ўқитувчилик" касби энг қийин, стрессга олиб келувчи ишлардан бири ҳисобланади.

Ўқитувчилик касбининг асосий омиллари қуйидагилардан иборат: юқори психо- эмоционал ҳолат билан кечадига иш тартиби, сезиларли даражада овоз бойламларининг зўриқиши, таянч-харакат тизимининг кичик умумий мушак юки билан узок муддатли статик зўриқиши, куриш аъзоларининг катта ҳажмдаги зўриқиши [5,6], ҳатто қулай иш муҳити булса ҳам ўқитувчининг банд жадвали марказий асаб тизимига таъсир кўрсатиши мумкин [3]. Шуни ёдда тутиш керакки, юқори асаб-руҳий зўриқиш шундай омилки, ўқитувчи олий таълим муассасларида ишлаш вақтида унинг саломатлигига хар куни ва бутун ўқув йили давомида таъсир килувчи, касбий толикишга олиб келувчи омил ҳисобланади.

Касбий толикишни 1981 йилда К. Маслач ва С. Жексон томонидан қабул қилинган уч асосий таркибий қисми тафовутланади [9].

1. Ҳиссий чарчаш, биринчи навбатда, эмоционал бузилишлар намоён булади, бу эса ёрдамга мухтожлик ёки аксинча бошқаларнинг эҳтиёжларига бефарқлик ва ҳиссий совуклик, чарчоқ хисси, умидсизлик, кайфиятнинг бузилиши, умумий энергетик тонуснинг, иш қобилиятининг пасайиши билан тавсифланади. Бунинг фонида турли хил жисмоний касалликлар ва психосоматик касалликлар пайдо булиши мумкин.

2. Деперсонализация коммуникатив даражада намоён булади ва бошқа одамлар билан муносабатларда муаммолар пайдо булиши билан ифодаланади. Бу ҳамкасблар, бошқарув ходимлари ва талабалар билан муносабатларга сезиларли таъсир кўрсатади. Деперсонализациянинг асосий намойиши шундаки, ўқитувчи талабаларга нисбатан турли хил салбий реакцияларни кўрсатади. Худди шундай ҳолат ҳамкасблар билан ҳам кузатилиши мумкин, яъни уларнинг фаолиятида ижобий томонларни кўра олмаслик, жамоа аъзоларига бефарклик билан ифодаланади. Шахсиятнинг узига хос хусусиятларига қараб, баъзи холларда ўқитувчи уз ҳамкасбларининг фикрига, бошликларни тасдиклашга йўналтирилган тобъе булса, бошқа ҳолатларда эса негативлик, жиззакилик, ўз-ўзини тасдиқлаш ва уларнинг манфаатларини химоя қилиш зарурати ортади.

3. Шахсий ютукларнинг камайиши. Ушбу компонент биринчи навбатда уз-узини баҳолашга каратилган. Купинча у уз фаолиятининг кадрсизланиши, профессионал муваффакиятлари ва ютукларининг камлиги, шунингдек, узини ва унинг ишини умумий салбий баҳолаш, уз қобилиятининг ноаниқлигини, кейинги ривожланиш имкониятларини кура олмаслиги билан намоён булади.

Юқоридаги учта компонент бир-биридан ва бир вақтнинг ўзида узини намоён қилиши мумкин.

Аввалрок биз томондан Ўзбекистоннинг етакчи замонавий олий ўқув юртлари меҳнат шароитларини ўқитувчиларининг психофизиологик ҳолатига таъсири ва уларнинг саломатлигини сақлаш бўйича профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш тадқиқот ишлари олиб борилган. Педагог ходимлар орасида ҳиссий чарчоқнинг уртача даражаси частотаси 52-

60%, шахсий ютукларнинг юқори даражада камайганлиги 44-50%; деперсонализақиянинг уртача даражаси 22-40%. ХЧ белгиларининг частотаси учун ОТМлардаги иш давомийлиги муҳимдир, ўқув йилининг бошида ҳиссий чарчаш кўрсаткичлари унинг охирига караганда камрок булганлиги аниқланди [1, 10].

Ушбу тадқиқотнинг мақсади электрон таълимда масофавий технологияларни қўллашда олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларининг (ПУ) ҳиссий чарчоғини узига хос томонларини аниқлаш, ПУ соглигини сақлаш бўйича профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқот объектлари ва усуллари. Тадқиқот объекти булиб, Тошкент тиббиёт Академияси (ТМА) 50 нафар профессор - ўқитувчилари хизмат килди. Тадқиқотда электрон таълимда масофавий технологияларни қўллашда олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларининг ҳиссий ҳолати белгиларининг частотаси ва табиати анкета-суров усули ёрдамида ўрганилди.

Олинган натижалар ва уларнинг муҳокамаси. 2020 йилнинг март ойида Тошкент тиббиёт Академияси профессор-ўқитувчилари орасида электрон таълимда масофавий технологияларни қўллашда дуч келган муаммоларни аниқлашга багишланган аноним суров утказилди. Саволларнинг асосий қисми дарсларда ишлатиладиган технологиялар ва услубларга багишланган. Тадқиқот шунингдек, ўқитувчиларнинг психо- эмоционал ҳолатига багишланган саволни ҳам уз ичига олган: “Масофавий таълим режимига утишда қандай қийинчиликлар сизни ҳиссий стресс ёки стрессга олиб келади?” Шу каби жавоб тоифаларга гуруҳланди:

а) техник алока муаммолари;
б) уй ишлари билан ишни бирлаштириш;
в) иш юкламаси ва янги дастурларнинг купайиши;
д) ўқув жараёнини ва таълим олувчиларни назорат қилишнинг мураккаблиги;
е) одатий режимнинг бузилиши.

МТТ ёрдамида таълим дастурларини амалга оширишда ўқитувчиларнинг ишидаги муаммоларнинг 1 -расмда фоизлардаги ифодаси келтирилган.

Натижаларни таҳлил қилиш билан бирга стрессга олиб келувчи бир нечта хавф омиллар аниқланди: биринчиси дарс сифатига таъсир килувчи барча техник муаммолар, иккинчиси таълим жараёнларига янги талаблар, иш юкламасининг ортиши ва янги технологияларни ўзлаштириш зарурати билан боғлиқ муаммолар.

Натижаларни таҳлил қилиш натижасида касбий чарчашга таъсир килувчи анъанавий омилларнинг 3 гуруҳи ажратилди: шахсий, маком-рол ва касбий-ташкилий.

Шахсий омиллар ўқитувчининг чарчашини ривожлантиришга хисса кушадиган муайян шахс хусусиятлари бор. Буларга ички низоларнинг мавжудлиги, стрессли вазиятларга жавоб бериш, мослаштириш ва бартараф этиш стратегияси, ҳамкасблар билан мулоқотни уйгунлаштириш қобилияти киради. МТТ ёрдамида ўқитишни ташкил этишнинг бир қисми сифатида ўқитувчилар стресс хавфлари мослашувчанлик, узгарувчан шароитларга тез мослашиш, стрессга шахснинг жавоб бериши ва етарли жавоб стратегиясидан фойдаланиш билан боғлиқлигини таъкидлашади. Саломатликнинг шахсий даражасини ушбу тоифага киритиш мумкин. МТТ-дан фойдаланиш компютер экрани ёки смартфон олдида сарфланган вақтни купайтирди, бу эса кузнинг зўриқишига олиб келади ва бу уз навбатида тез чарчашга олиб келади.

Мақом омилларига ижтимоий макомдан коникмаслик, турли ижтимоий ролларни бирлаштиришдаги қийинчиликлар, ўқитувчининг касбий компетентлиги даражаси, ижтимоий, касбий ва шахсий усишдан коникмаслик даражаси киради. Бу тоифага фарзандли ўқитувчилар, айникса, хотин-кизларнинг кунлик юкламасини ошиши киради. Бу эса ўқитувчининг нафақат уз фаолиятини, балки уй ишларини тулик олиб бориш, болалар фаолиятини кузатиб бориш, жумладан, таълим-тарбия, ота-она, уй бекаси ва ўқитувчи ролларини бирлаштиришда қийинчиликларга сабаб булади.

Касбий ва ташкилий омилларга таълим ташкилотининг хавфсиз ва қулай психологик—педагогик шароитлари-психологик иқлим, ўқитувчилар, талабалар ва бошқарув ходимлари

уртасидаги муносабатлар услуби, таълим жараёнини самарали ташкил қилиш мақсадида зарур булган моддий-техник жихозлар билан таъминлаш киради. Бундай холда, замонавий технологияларнинг мукаммалл эмаслиги билан боғлиқ техник муаммолар биринчи уринга чикади. Жумладан, ўқитувчилар интернет тезлигининг пастлиги, электр токи таъминотидаги узилишлар, алока билан боғлиқ узилишлар ёки унинг тулик йуклиги (ўқитувчиларда ҳам, таълим олувчиларда ҳам)ни кайд этишди. Ушбу омиллар гуруҳига ноодатий шароитларда мажбурий ишлаш, янги технологияларни, платформаларни, қисқа вақт ичида дарс шаклларини ўрганиш зарурати билан боғлиқ стрессли хавфлар киради; янги ўқув шароитлари методологиясини созлаш, шу жумладан таълим олувчиларнинг диккатини онлайн сақлаш.

Аниқланган стрессли хавф омилларининг мажмуаси ўқув жараёнининг самарадорсизлигига олиб келади, бу эса талабалар томонидан ўқув дастурини ўзлаштириш даражасининг пасайиши ва ўқитувчиларнинг асаб-руҳий зўриқишини оширади. Таълим олувчиларнинг ўзлаштиришининг паст натижаларни куриб, ўқитувчи ўз меҳнатининг беҳуда кетганини хис қилади ва у касбий фаолиятнинг фойдасизлиги, унинг амалий аҳамияти йуклиги ҳақидаги таассуротни олиши мумкин, бу эса уз ишининг кадрсизланишига олиб келади. Шундай килиб, биз касбий чарчоқнинг учта таркибий қисмини кузатамиз: ҳиссий чарчаш, деперсонализақия ва шахсий ютукларни камайтириш. Шу сабабли, айниқса, масофавий таълим шароитида ўқитувчиларнинг касбий чарчаш эҳтимолини уз вақтида ташхислаш ва улар билан профилактик ишларни мунтазам равишда олиб бориш муҳим аҳамият касб этади.

Шахсий омилларни олдини олиш учун ўқитувчилар нафақат касбий, замонавий технологияларни ўзлаштириш ва қўллаши, балки мураккаб муаммоларни ҳал қилиши, танқидий фикрлаши, шароитларга мослашувчанлик, ижодкорлик, алока ва хоказо. Бундан ташкари, стрессли вазиятларда ўқитувчи уз устида ишлаши ва жавоб реакцияларини таҳлил қилиши ва уларни тузатиш устида ишлаш муҳимдир. Бундай вазиятда ҳиссий ақлни ривожлантириш ва ҳиссий ҳолатни бошқариш фаолияти алоҳида аҳамиятга эга. Куз чарчашининг олдини олиш учун фаолият турини тез-тез узгартириш керак. Таълим олувчилар билан биргаликда соғлиқни сақлаш технологияси сифатида фойдаланиш мумкин булган куз мушаклари чарчоғини енгиллаштириш учун бир қатор машқлар мавжуд. Бу ерда улардан баъзиларини мисол тарикасида келтирамиз.

1-машқ "кора кафтлар". Имкон кадар нур киришини олдини олиш учун икки кафт билан кузларни ёпинг. 10-15 сония давомида уларни ушлаб туринг. Бу куз мушакларини бушатиш учун етарли. Шу вақтда сиз денгизни, тогларни, урмонни ёки дарс мавзусидан бирор нарсани тассаввур қилишингиз мумкин.

1-машқ "Бурун билан чизиш". Кузларингизни ёминг ва бурун учи билан хавода хар қандай шакл, рақам ёки харфни чизишингиз мумкин булган калам деб тасаввур қилинг. Ушбу машқлар 30 сониядан 1 дакикагача давом этади ва нафақат кузнинг мушакларини бушаштиришга, балки бўйинни чузишга ҳам ёрдам беради, бу эса мияга кон окимини оширади. Худди шу тарзда, сиз таянч-харакат тизими касалликларини олдини олишга каратилган оддий машқлардан фойдаланишингиз мумкин.

Ҳиссий ҳолатни яхшилаш учун арт-терапия ва нейрографиянинг турли усуллари қўлланилиши мумкин. Нейро графикаси усулида хаёлингизга келган тасвирни туширинг, янги китобларни ўқинг ва психологик муаммоларни бартараф этиш бўйича оммавий ахборот воситалари (интернет)дан маълумот изланг. (https://uz.perestanovki.org/4511-what- is-art-therapy.html).

Ўқитувчилар томонидан стрессли хавфлар сифатида белгиланадиган ҳолат-рол омилларининг олдини олиш масофавий таълим технологияларидан фойдаланган холда ўқув жараёнига эмас, балки уз-узини изоляқия режими билан боғлиқ холда уйда мажбурий ишлашни камайтиради. Бирок, бундай хатарлар бошқа вазиятларда мавжуд булиши мумкин, уларнинг самарали режалаштириш ва ўқув жараёнларини автоматлаштириш учун кўникмаларини ривожлантириш учун қўшимча тренинглар ташкил қилиш.

Касбий ва ташкилий омилларнинг олдини олиш куп жиҳатдан таълим ташкилотининг техник имкониятларига боғлиқ. Ҳозирги кунда ушбу йўналишда айрим дастурлар, хусусан,

"рақамли таълим муҳити" давлат лойиҳаси амалга оширилмокда. Давлат электрон мактаби каби таълим жараёнида тайёр видео дарсликлар ва махсус платформалардан фойдаланиш техник носозликлар хавфини сезиларли даражада камайтиради.

Республикамизда олий таълимни ривожлантириш Олий ва урта таълим вазирлиги таълим муассасаларида фан курсларини ишлаб чиқиш учун Moodle масофавий таълим платформасини тақдим этди. Ушбу платформа турли хил вазифаларни яратиш ва уларни автоматик равишда текшириш учун турли хил имкониятларга эга. Интернет тулик булмаган тақдирда, электрон ахборот воситаларида сақланган видеолардан фойдаланиш мумкин.

Хулоса. Шундай қилиб, таълимни ташкил қилиш давомида МТТ фойдаланишдаги муаммолар ўқитувчиларда ҳиссий чарчоғни ривожланишига олиб келади. Шунинг учун уз-узини тарбиялаш, касбий компетенцияни такомиллаштириш, шахсий фазилатларни ривожлантириш, стресс хатарларини тартибга солишга каратилган профилактик усуллардан мунтазам фойдаланиш ўқитувчига нафақат ҳиссий ва касбий стрессни енгишга ёрдам беради, балки ўқувчиларнинг ўқув фаолиятига кизикишини оширишга ижобий таъсир кўрсатади.

АДАБИЁ ТЛАР:

1. Ахмадалиева Н.О., Саломова Ф.И., Болтаева Д.М., Истамов А.И. Психо-эмоциональное выгорание и его профилактика у преподавателей вузов Узбекистана// Доктор Ахборотномаси. 2020. №2 (94). С.13-16

2. Китаев-Смык, Л. А. Психология стресса / Л. А. Китаев-Смык. — М.: Издательство «Книга по требованию», 2013. 368 с. 5-10 стр.

3. Климов Е.А. Педагогический труд: психологические составляющие: учебное пособие - М.: Изд. Московского университета - 2004 - 240с.

4. Международная классификақия болезней 10-го пересмотра (МКБ-10) [Электронный ресурс]. — URL: https://mkb-10.com/index.php?pid=22502 (дата обращения: 24.02.2021).

TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURTLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH VA O‘RGANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Barnoyeva Zarina Zafar qizi-
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi katta o`qituvchisi.

KIRISH. O‘qitish va o‘qitishda innovatsion texnologiyalar nima? Texnologik yangiliklar barcha darajadagi ta’lim tizimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Onlayn kurslar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv dasturlari, ijtimoiy tarmoq vositalari va boshqa rivojlanayotgan texnologiyalar an’anaviy sinf muhitini buzmoqda. (https://www.google.com/search)

Ta’lim texnologiyasi va E-Learning, bunday mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini qaratilgan ta’lim, vaqt yoki joy, hamkorlikdagi ta’lim qat’iy nazar o‘rganish va bevosita hisobot va ta’limni baholashni ta’minlash kabi ko‘plab ta’lim maqsadlari, ko‘proq erishsa paydo bo‘lgan holatini paydo bo‘lishi. Elektron tibbiy ta’lim rivojlangan mamlakatlarda juda mashhur bo‘lib kelgan va tez rivojlanmoqda, bu ta’lim qiymati va o‘quv dasturlari orqali ulkan kengaytirish auditoriyaga ega, chunki. Bugungi kunda hisobga olib, fakultet a’zolari ta’lim yangi vositalarini eng o‘rganish kerak esa, ularning talabalar eng uchun, bunday kompyuterlar va boshqa bog’liq ilovalar sifatida ta’lim, bu yangi vositalari, albatta, ular bilan butunlay tanish, balki ularni ishlatish juda qodir emas, chunki texnologiya ko‘rib emas. Shu sababli, fakultetlar ma’lumot uzatish, bu yangi usullarini o‘rganish uchun harakat esa, talabalar taxminlar har kuni yuqori olishda, Shuning uchun u ta’lim texnologiyasi mahorat oliy o‘quv yurtlari uchun maxsus o‘quv dasturi mandati fakultetlarida muhim beparvo qobiliyat ekanligini ko‘rinadi’ oshirish va takomillashtirish.(Saffari, Zahra & Takmil, Farnaz & Arabzadeh, Rahmatalah. (2014.p 183.)

Ta’lim texnologiyasi vositalari talabalarga yangi o‘quv imkoniyatlarini taklif qiladi va yangi ta’lim imkoniyatlari bilan o‘qituvchilar va talabalarni ta’minlaydi. Ushbu resurslar anatomik va fiziologik jarayonlarni tasvirlab beradi, talabalar ehtiyojlariga moslashtiruvchi ko‘rsatma, talabalarga xavfsiz muhitda ko‘nikmalarni amalda qo‘llash, o‘qitish va baholash faoliyatini standartlashtirish va

har joyda va har doim taklif qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, bugungi o‘quvchilar texnologiya rivojlangan ta’lim muhitlariga o‘rganishadi.

Material va metod

Tibbiyotda xorijy til o‘qituvchilar ta’lim resurslarini yetkazib berishni to‘ldirish uchun texnologiyadan tobora ko‘proq foydalanmoqdalar. Multimedia texnologiyasi kelishi, World Wide Web tarmoq kompyuterlari hamma joydagi dasturlar, ishlatiladigan o‘quv texnologiyalarini o‘zgartirdi. Texnologiya chet tili o‘qituvchilariga o‘z ko‘rsatmalarini to‘ldirish imkoniyatini taqdim etadi: ta’limni ko‘rinadigan qilish: texnologiya sinfga boshqa madaniyatni keltirishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarda ulanish va boshqalar yashash qanday namoyish texnologiya vositalari yordamida talabalar ko‘rish va butun bir yangi tarzda tajriba tili imkonini beradi. Haqiqiy ma’lumotlarning o‘sib borayotgan miqdori professional yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari o‘rta maktabni tugatish va uzoq muddatli iqtisodiy muvaffaqiyatni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Tibbiyotda xorijiy tilni o‘qitishdfa qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin?

7 innovatsion ta’lim texnologiyasiga misollar

Raqamli o‘qish uskunalari va planshetlardan foydalansh deganidir.

3D bosma. ...

Virtual haqiqat. ...

Gamifikatsiya. ...

Cloud texnologiyasi. ...

Sun’iy intellekt. ...

Mobil texnologiyalar.

Classcraft. Auditoruyada o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilish va yanada uyg’unlashtirilgan o‘quv muhitini yaratish uchun ayni shu o‘yin tamoyillaridan foydalanadi. Ushbu platforma talabalarni ilmiy va ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilishda birgalikda ishlashga undaydi. Classcraft bepul va shuningdek, o‘qituvchilarga qo‘shimcha funktsiyalar to‘plamini taklif qiluvchi pulli versiyaga ega.

Adobe Spark. Talabalarning kontentga jalb qilishning eng qiziqarli usullaridan biri uni o‘zlariga o‘rgatishdir. Spark Video talabalar o‘z o‘quv video yaratish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan app. Adobe Spark platformasining bir qismi, dastur tayyor andozalar, tasvirlar va ilhomlantiruvchi tovushlar bilan birga keladi. Talabalar o‘z mavzu bilan bog’liq rivoyat video rivojlantirish mumkin, ular yil davomida qilgan o‘rganish mustahkamlash mumkin. Bolalar o‘yin orqali eng yaxshi o‘rganish, va dizaynerlar ular yosh miya rag’batlantirish va bilim bermoq uchun ta’lim o‘yinlar va faoliyatini mo‘ljallangan nima uchun bu, bilaman. Bolalar jalb qilish va qiziqarli tarzda mavzu masalada ularni immersing tomonidan, o‘qituvchilar o‘z talabalar ta’lim sevgi rivojlantirish yordam berishi mumkin.

You tube. Ko‘pchiligimiz, ehtimol, maktab televizor ularning sinf ichiga dumaladi edi hayajon, deb his eslayman. Shu kunlarda, u oson talabalar o‘rganish uchun qilish sinfda video olish uchun oson bo‘lishi mumkin emas. O‘quvchilar matematika, kodlash va ilm-fan kabi tushunchalarni tushunishlariga yordam beradigan ijodiy videolar bilan to‘la. Hisobni boshqarish oson va Google hisobingizga ulanishi mumkin. Bu onlayn vositasi bilan, o‘qituvchilar o‘z derslik uchun o‘z shaxsiy qo‘llanma video yaratish yoki mavzu ijro ro‘yxatlarini ichiga to‘plangan kliplarni kompilyatsiya mumkin.

Ta’lim texnologiyalari taqdim etishning foydali tomonlari:

* talabalar uchun erkin, nazorat ostida sharoitlar
* kengaytirilgan realistik vizualizatsiya
* o‘qitish va baholash uchun haqiqiy shartlar
* talabalarning xulq-atvori va natijalarini hujjatlashtirish
* shaxsiy yoki guruh ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qitish
* ta’lim tajribasi uchun talabalarni nazorat qilish
* takrorlash va maqsadli amaliyot
* joy va vaqt ajratib ko‘rsatmalar
* o‘qitish va baholashni standartlashtirish
* o‘lchov orqali abadiy resurslar va yangi tejamkorlik

XULOSA

Bugungi kunda lafedra a’zolari ta’limning yangi vositalarini talabalarga eng qulay bo‘lgan kompyuterlar va boshqa bog’liq ilovalar bilan o‘qitishga harakat qilishmoqda bu yangi vositalar, albatta, ular bilan butunlay tanishgan, ularni ishlatishga qodir bo‘lgan holda amalga oshirilishi shart. Shuning uchun kafedra xodimlari bu yangi usullarini o‘rganish uchun harakat qilmoqda, chunki talabalarning takliflari har kuni ortib bormoqda.

Hech shubha yo‘qki, ta’lim texnologiyalari tibbiy ta’limda Ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishni takomillashtiradi. Hech shubha yo‘qki, texnologiyalar rivojlanishda davom etadi va professional va shaxsiy sozlashmalarimizning barcha qirralariga qo‘shiladi. Tibbiy ta’lim jamoatchiligi tibbiy talabalarga taqdim etilgan ma’lumotlar va u taqdim etilgan joylar mos kelishi va o‘rganishni optimallashtirish va ushbu resurslar talab qiladigan resurslarni (odamlar, ob’ektlar, pullar) katta miqdorda sarmoya kiritishni oqlashi kerak. Tibbiyot maktablari bunday investitsiyalar uchun "ishni bajarish" uchun texnologiyadan foydalanish o‘rganish haqida bilgan narsalarimiz bilan bog’liq bo‘lishi kerak. Ko‘pincha bir bor" madaniy holat" tegishli samarali foydalanish bilan yangi texnologiya bog’lagandan, tibbiy o‘qituvchilar ta’lim nazariyasi hidoyat va texnologiya, ularning foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi, deb ishonch bo‘lishi muhim qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://www.google.com/search
2. Saffari, Zahra & Takmil, Farnaz & Arabzadeh, Rahmatalah. (2014). The role of Educational Technology in Medical Education. Journal of advances in medical education & professionalism. 2. 183.
3. https://store.aamc.org/downloadable/download/sample/sample id/111/
4. https://leverageedu.com/blog/objectives-of-educational-technology/

ИЧКИ КАСАЛЛИКЛАР ФАНИНИ ЎҚИТИШДА МОБИЛ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Баймуродова Маҳлиё Ҳамидуллаевна-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги техникуми бош ўқитувчиси

Кириш. Бугунги кунда аксарият педагоглар ва таълим олувчилар ижтимоий тармоклар ва медиа тармоклар фойдаланувчилари ҳисобланади. Ижтимоий тармоклар имкониятларини ҳисобга олиб, уларни таълим жараёнига қўллаш учун маълум қоидаларга риоя этиш зарур:

1. Ҳамкорликдаги фаолиятда ижтимоий медиалардан фойдаланиш.
2. Ижтимоий медиалардан таълим жараёнида фойдаланиш.

Материал ва метод. Ижтимоий медиа маълум маънода вақт, фойдаланувчилар аудиторияси каби тушунчалар чегарасини узгартиради. Масалан таълим олувчи ва педагоглар ихтиёрий вақтда, ихтиёрий жойда ҳамкорликда ишлашлари ва маъулмот алмашишлари мумкин. Шу билан бирга ижтимоий медиа гуруҳ билан ечиладиган масалаларни хал этиш, тескари алокани урнатиш, эришилган натижаларни интернетга чоп этиш ва бошқалар билан баҳам куриш имкониятларини беради. Ижтимоий медианинг энг асосий ва қулай вазифаларидан бири таълим олувчиларнинг фанни ўзлаштиришдаги ютуклари ёки жараённи кузатиш имкониятидир.Ҳамкорликдаги фаолиятда амалга оширилган ишларни бемалол кучириш, таркатиш имкониятлари кенг жорий этилган. Уз навбатида ҳамкорликда фаолият олиб борган таълим олувчи ёки талаба нима билан шугулланган ёки унинг шахсий маълумотларини ҳам кайд этиб боради. Ижтимоий медиа воситалари ёрдамида тақдим этиладиган ўқув-услубий материаллар таълим олвучиларга ишлов берилмаган тарзда эмас, балки ўқув мақсадига эриши йулида пухта ишлаб чикилган булиши керак. Ижтимоий медиа тармоклардан педагогик фаолиятда фойдаланилганда, муаллифлик ҳуқуқларининг бузилиши, касбий этикага риоя килмаслик ва шу каби хуқуқий муаммоларнинг юзага келиш хавфининг олдини олиш керак. Мобиль қурилмалар имконияти нафақат кунгирок қилиш ёки хабар

алмашиш учун балки ундан кенгрок вазифаларни бажаришга мулжалланган. Бугунги кунда бу курилмалар купгина фойдаланувчилар учун ахборот олиш, билимларни шакллантириш, фикр алмашиш имкониятларини такдим этмокда. M-learning (Mobile- learning) шундай таълим турики ушбу таълим мобиль курилмалар ёрдамида амалга оширилади. Мобиль таълимнинг биринчи даражаси одатда маълумот узатиш ёки иерархик услубга буйсунади, иккинчи даража эса биринчи даражани тулдиради ва қўшимча имкониятларни такдим этади. Учинчи даража эса иккинчи даражани тулик коплайди ва педагогик фаолиятда таълим мақсадига эриишишнинг энг муҳим ва мукаммал услубларидан бирига айланади. Мобил таълимнинг барча жиҳатлари қараб чикилгандан сўнг, ўқитувчи таълим жараёнини лойиҳалаштиришда маълум талабларни бажариши шарт сифатида қабул қилинади. Бунда ўқитувчи томонидан мобиллик даражаси танланилади ва шу даражада қўллаш мумкин булган рақамли ахборот таълим ресурслари ажратиб олинади. Ушбу жараёнда электрон дарслик, дастурий илова ва суровномалар каби таълим бериш имкониятларини оширувчи воситалар ўрганилади ва тизимлаштирилади.

Электрон дарслик. Электрон дарслик бу нашр этилган китобнинг PDF версиясидан ҳажм жиҳатидан бир мунча катта ҳамда кидирув ва лугат каби функциялар кушилиб яхшиланган куриниши. Лекин замонавий электрон дарслик - рақамли-биринчи ёки рақамли-ягона куринишда лойиҳаланган булиб, уз ичига мультимедиа материаллари (муаллифлик иловалари ва видео иловалар), интерактивлик (масалан, автоматик тарзда викториналарни баҳолаш ёки симуляторларни кулда бошқариш) ва энг биринчи навбатда тармок имкониятлари(таълим олувчилар ва педагоглар учун хабарлар канали, ижтимоий медиа платформ орқали маълумот алмашуви)ни қамраб олади.

Дастурий иловалар (дастурий таъминот). Дастурий иловалар бу оддий иловалардан тортиб то мультимедиали интерактив электрон дарсликларгача булган дастурий иловаларни қамраб олади. Дастурий иловалар Интернетдан юклаб олинган дастурий таъминотнинг бир қисми булиб, мобил операцион тизимларда ишлаш учун мулжалланган. Дастурий иловалар оддий ўйин форматида ёки бирор бир предметни ўқитиш учун мулжалланган, масалан математика, химия ва тилларни ургатувчи иловалар ҳам булиши мумкин.

Суровномалар. Педагоглар ноформал куринишдаги суровномаларни синфларда олдиндан утказиб келишади. Фақатгина бу суровномаларга таълим олувчилар кул кутариб жавобни беришади. Суровномаларни рақамли ускуналар ёрдамида утказиш бу жараённи самарадорлигини оширади. Веб-сайт, дастурий иловалар ёки ижтимоий тармоклар ёрдамида таълим олувчилар уртасида суровномалар утказиш мумкин.

QR сканер орқали сканер қилиниши ва код жойлашган сайт, буюм, реклама ёки бирор бир нарса ҳақидаги маълумотни гипермурожаат орқали смарт курилма ёрдамида кидириб топиш мумкин. Улар реал дунё (каерда жойлашишидан катъий назар масалан, плакатлар ёки бирор бир текис юза) билан рақамли ахборот ва коммуникация каналларини(ижтимоий тармок ёки форумларда матн ёки видео куринишда музокара қилинади) боглаб туради. Таълим олувчилар бирор бир дарс жараёнини смарт курилма орқали тасвирга олиб уларни ижтимоий медиа тармоклар (Instagram ёки Twitter, Foursquare ёки Yelp) ёрдамида бошқа танишларига жунатишлари, улар ҳам ушбу дарсни куриб чиқишлари ва ушбу мавзу бўйича ўқитувчи ва бошқа аъзолар билан турли хил мунозаралар утказиши мумкин.

QR-код. QR-код (англ. quick response — тез жавоб) —(икки улчамли штрихкод), 1994-йилда Denso-Wave номли япон компанияси томонидан ишлаб чикилган ва такдим этилган. Улар сайтларда, рекламалар ва ҳаттоки ташриф карточкаларида учраши мумкин. Ушбу икки улчамли штрих код QR сканер орқали сканер қилиниши ва код жойлашган сайт, буюм ёки бирор бир нарса ҳақидаги маълумотни гипермурожаат орқали смарт курилма ёрдамида кидириб топиш мумкин. Улар реал дунё (каерда жойлашишидан катъий назар масалан, плакатлар ёки бирор бир текис юза) билан рақамли ахборот ва коммуникация каналларини(ижтимоий тармок ёки форумларда матн ёки видео куринишда музокара қилинади) боглаб туради.

Ҳозирги вақтда тиббиёт соҳасидаги маълумотларни интернет тармокларидан кидириш, маълумотлар ишончлилигини текшириш мақсадида ва муаллифлик хуқуқи бузилишининг

олдини олиш мақсадида QR-сканерлаш энг макбул вариантлардан бири ҳисобланади. Бунда ўқитувчи томонидан талаба фанни ўзлаштириши учун зарур булган маълумотлар сайтларга юкланади ва бу маълумотлар махсус QR-кодларга бириктирилади. Кейинчалик талаба уз мобил курилмаси орқали бу QR-кодни сканерлаб, узи учун керакли маълумотлардан фойдаланиши мумкин. Бу усул билан талабаларнинг тўғрилиги текширилмаган маълумотлардан фойдаланиши ва муаллифлик хуқуқи бузилишининг олдини олишда фойдаланиш мумкин. Усулнинг камчилиги сифатида шуни айтиш мумкинки, бунда маълумотлардан кенг жамоатчилик фойдаланиши нисбатан чекланиши мумкин.

Натижалар.Усулнинг аҳамиятини ўрганиш мақсадида талабалар уртасида анкета-суровнома утаказилди. Суровномада қуйидаги саволлар уз аксини топди:

1. Дарсларни ўзлаштиришда канчалик интернет тармокларидан фойдаланасиз?
2. M-learningдан фойдаланиш талабалар учун қулайлиги
3. Маълумотлар ишончлилиги ва текширилганлиги
4. Маълумотларни олишдаги каршиликлар мавжудлиги
5. Муаллифлик хуқуқининг химоя қилинганлиги

Суровномада Тошкент тиббиёт академиясининг 83 нафар талабаси ва 25нафар ўқитувчилар иштирок этган булиб, кўрсаткичлар қуйидаги графикларда келтилиган:

Хулоса. Утказилган суровнома натижаларига кура қуйидагилар маълум булди:

1.QR-сканерлашнинг дарсларни ўзлаштиришда маълумотларни осон топишдаги аҳамияти юқорилиги.

2. Маълумотлардан мобил қурилмалар орқали фойдаланишнинг қўлайлиги .
3. Муаллифлик хуқуқининг химоя қилинганлиги.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “ВИРТУАЛ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа М.Файзиева, п.ф.н. Д.Сайфуров. 2016

2. Michael Henderson, Geoff Romeo. Teaching and digital technologies(Big issues and critical questions). Cambridje University Press. 2015.

3. Bent B.Andresen and Katja van den Brink. Multimedia in Education.UNESCO Institute for Information Technologis in Education. 2013.ISBN 978-5-7777-0556-3.

КЛИНИК ИШ ЎЙИНЛАРИНИНГ АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРДАГИ АҲАМИЯТИ

Олимова Азиза Музаффар қизи-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги техникуми
етакчи ўқитувчиси
Яркулова Насиба Баҳроновна-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги
техникуми ўқитувчиси

Долзарблиги: Ўзбекистон соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш Давлат дастурининг устувор йўналишларидан бири соликни сақлашнинг биринчи бугини ни ривожлантириш ва дастлабки тиббий-санитар ёрдами кўрсатиш муассасалари тузилмасини такомиллаштиришдир. Умумий амалиёт шифокори, оилавий шифокор янги мутахассислиги жорий этилди. Улар томонидан ахоли саломатлигини мухофаза қилиш, соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш, ташхис қуйиш, касалликларни даволаш ва профилактика қилиш ишлари амалга оширилмокда. Амбулатория бугинида масъулиятли қарорларни мустакил қабул қилиш, тезкор ва сифатли профессионал ёрдам кўрсатиш лаёкатига эга шифокорларни тайёрлашнинг роли кучайди. Бу бўлажак мутахассиснинг тайёрлигига йўналтирилган таълимдан одатдаги вазиятдан мукобилига утишни такозо этмокда, яъни бунда ноаниқ ҳолатларда мутахассис қандай йул тутиши кераклиги назарда тутилади. Таълимнинг бугунги вазифаси талабаларни кун сайин такомиллашиб бораётган ахборот-таълим шароитида мустакил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот окимидан окилона фойдаланишга ургатишдан иборатдир. Таълим тизими тузилишидаги кенг камровли ислохотларни ўқитувчилар илғор педагогик технологияларни

ўзлаштириш ва ўқув жараёнида қўллаш билан мустаҳкамлайди. Бунинг учун педагоглар ўқув жараёнига технологик ёндашувни ўрганганиб, қўллаган холда ёндашишлари талаб этилади. илғор технологияларнинг кенг ривожланиши билан сўнгги йилларда тиббиёт олий ўқув юртларида таълимни оптималлаштириш учун янги педагогик клиник иш ўйин технологиялари ҳам самарали қўлланилиб келинмокда.

Клиник иш ўйинлари талабалар томонидан реал ҳаётий вазиятларни ўқув хонасида моделлаштириш ва ролларни ижро этиш орқали маълум назарий билим ва амалий кўникмаларни шакллантиришга каратилган усулдир. Ушбу шакл муайян объектнинг мураккаб вазиятларини - симуляцияларини моделлаштириш орқали талабаларнинг билимларини энг самарали кўникмаларга айлантиришга ёрдам беради. Динамикада объектнинг узи (бемор) билан эмас, балки унинг симуляция модели билан турли хил вазиятларни ижро этиш мумкин булади. Бундай кўникмалар ўқув фаолияти жараёнида ривожлантирилади, шу орқали таълим жараёнини фаоллаштириш муҳим долзарб вазифалардан бири ҳисобланади Клиник иш ўйинларининг асосий мақсади- эгалланаётган касб бўйича амалий ва коммуникатив кўникмаларни ривожлантиришдан иборат ҳамда касбий ҳолатларда аниқ ва тез ёндошиш, тўғри қарор қабул қилишни шакллантиради, булгуси мутахассиснинг фаолиятида реал хатоликларнинг олдини олади, билим ва кўникмаларни аниқлаб, тўғрилайди.

Клиник иш ўйинларининг асосий қоидаси - бу маълум ҳолат бўйича сценарийни тузишдир. Сценарий режаси - бу вокеаликнинг мантикан мажмуасини акс эттиради, вокеалар кетма - кетлигини баён этади. Сценарий режасининг афзаллигини "катъийлик" ва стереотипик фикрлашни заифлаштиришнинг энг самарали воситаларидан бири, деб ҳисоблаш мумкин. Бу усул талаба билими ва кўникмасини реал мураккаб вазиятларга йўналтиришда гоят самарали ҳисобланади.

Ўйин босқичлари:

I.Тайёргарлик босқичи:

Курс ва мавзуни аниқлаш. Клиник иш ўйинларини юқори курсларда ва магистратура йўналишида утказиш мақсадга мувофиқ. Бунда асосан шошилинч ҳолатларни ёки кам учрайдиган касаалликларни ўзида акс эттирган ҳолатларни танлаган яхширок ҳисобланади.

1. Ўйиннинг мақсадини аниқлаш:

Ўйин давомида қандай билим ва кўникмани намойиш этишни шакллантириш.

2. Иш ўйинининг марказида сценарий режасини тузиш ташкил этади:

а) касбий фаолиятда вазиятли ҳолатни (реал, долзарб) танлаш;

б) ролларни аниқлаш ва уларни мутахассислик ва мансабига қараб алоҳида карточкаларда кайд қилиш;

в) харакат жойини (бемор хонадони, тез ёрдам машинаси, қабул булими ва бошқаларни аниқлаш;

г) реал тиббий хужжатларни (таҳлиллар, рентгенограмма ва ЭКГ туплами) тайёрлаш, ўйинни фантон, муляж жадваллар ва бошқалар билан таъминлаш.

3. Параллел ўрганилаётган фанларни ўрганиш ва базис булимларни такрорлаш .

Талабаларга такрорлаш учун адабиётлар рўйхати келтирилади.

II. Ўйиннинг бориши.

Бошловчи - ўқитувчи ўйинни маълум ҳолатдан бошлаб, талабаларни роллар бўйича таксимлайди. Бундай холларда ўйин турли ҳолатларда иштирокчининг узи ва ҳамрохининг харакатларини баҳолаш имкониятини беради. Клиник иш ўйини деонтологик принципларга асосланган мулоқот қобилиятларини амалда қўллаш учун "синов майдончаси" га ухшайди. Турли ролларнинг бажарилишига қараб, ахлоқий сифатларнинг намоён булишининг узига хос шакллари ролнинг узаро таъсири талабларига мувофик урнатилади.

III. Ўйинни таҳлил қилиш:

Талабалаларнинг “эксперт” гуруҳи - кадамма-кадам ўйиннинг боришини таҳлил килиб, камчиликларни узига кайд қилади:барча ўйин иштирокчиларининг муваффакиятли ва муваффакиятсиз харакатларини таҳлил қилишади. Ҳар бир талаба бу хакда узининг нуқтаи назарини баён қилади. Эксперт гуруҳи таҳлилни бир неча босқичлар бўйича баҳолайди:

- ахборот йигиш - анамнез;

- врач - бемор узаро харакати;
- пациентни хар томонлама курикдан утказиш;
- пациентни (менеджимент) олиб бориш.

Иш фаолиятимиз давомида кафедрамизда “Ички касалликлар” фанини ўқитишда амалий машғулотларда кам учрайдиган мавзулар: тугунчали периартериит, феохромоцитома ва шу кабилар ёки шошилинч ҳолатлар: кардиоген шок, астматик статус ҳолатларида беморларнинг клиникада булмаган ҳолатларида клиник иш ўйинлари кенг қўлланилиб келинмокда ва улар узининг ижобий самарасини бермокда.

Хулоса:

1. Клиник иш ўйинлари талабаларда мустакиллик, ишбилармонлик, ташкилотчилик, коллективизм, қуйилган муаммони ечишда ижодий ёндашишни тарбиялайди.
2. Иш ўйини деонтология принципига асосланган коммуникатив кўникмаларни шакллантиради.
3. "Тематик беморлар" йуклиги муаммоси йуколади, чунки хар қандай касалликларга чалинган беморларнинг моделлари ўйин давомида жонли равишда тақдим этилиши мумкин, қисқа вақт ичида бемор билан шифокорнинг касбий ишининг хакикий модели талабани келажакда уни шифокор сифатида касбий фаолиятида, шу жумладан фавқулодда вазиятларга тайёрлаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Красильникова В.А./В.А. Красильникова.Информационные и коммуникационные технологии в образовании. Учебное пособие для студентов ВУЗов. М.: «Дом педагогики» 2007г.
2. Аляви А.Л., Қодирова Ш.А.Умарова З.Ф. Госпитал терапия фанини ўқитишда қўлланиладиган ўқитишнинг интерфаол усуллари.Тиббиёт олий таълим муассасалари ўқитувчилари учун ўқув-услубий кўрсатма. Тошкент-2010 й.
3. Королькова Н. К., Медведева Л. З., Волкович Т. К., Приступа В. В., Морхат М. В. Ситуационно-ролевые игры как метод обучения клиническим дисциплинам // Вестник ВГМУ. 2012. г.
4. Р.Ишмуҳамедов, М.Юлдашев.Таълим ва тарбияда иннавацион педагогик технологиялар. Тошкент-2013.
5. Umarova Z.F., Qodirova Sh.A. Jumanazarov S.B. “Ichki kasalliklar” fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyaning qo‘llanilishi Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent-2021

ТИББИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Бекмуродова Дурдона Улуғбек қизи-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги бош ўқитувчиси
Қувондиқова Юлдуз Қувондиқ қизи-
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги етакчи ўқитувчиси.

рақамлаштириш - барча учун таълим беришнинг бир хил сифатда ташкил этиш усулларидан биридир. Рақамли ўқитиш орқали таълим олувчига персоналлашган ёндошувни тез ва осон шакллантириш, хар бир таълим олувчининг эҳтиёжини ҳисобга оладиган табакалаштирилган ўқитишни тадбик этиш имкони булади. Бирок замонавий шароитда жамиятимизда асосий муаммони тушунишимиз зарур, айни вақтда техника ва онлайн-инструментлар жамиятимиз аъзоларининг барча катламларида ва жойларда мавжуд эмас. Рақамли ўқитиш хакикий самара беради, качонки у оммавий таъминотга эга булса, бу эса давлат олдидаги бундай ўқув жараёнини ташкил этиш учун таълимнинг барча босқичларида зарур булган асосий фондлар билан таъминлаш каби алоҳида турган вазифадир [6].

Мамлакатимизда рақамли иктисодиётни фаол ривожлантириш, барча тармоклар ва соҳаларда, энг аввало, давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни сақлаш ва кишлок хужалигида

-maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda milliy xalq o‘yinlaridan maqsadli foydlanish;

-xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

-bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoitlari (o‘yin uchun jihozlar, atributlar)yaratish;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oila va mahallalar o‘rtsida milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlar va musobaqalar o‘tkazish[6]. Milliy qadryatlarga tayanilgan tarbiya insonning butun umri davomida yo‘l yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda milliy qadryatlar har bir bola shaxsining ma’naviy-ruhiy poydevorini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri bo‘lib, ular orqali bola o‘z xalqining tarixi, urf-odati, an’analari, madaniy merosi bilan tanishadi va jamiyatda o‘z o‘rnini anglay boshlaydi. Shuningdek qadryatlar bolaning axloqiy tasavvurlarini boyitib, mehr-oqibat, hurmat, vatanparvarlik, mas’uliyat kabi fazilatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi berilgan milliy tarbiya bolada mustaxkam manaviy tarbiya hosil qilib, kelajakda yuksak madaniyatli, o‘z milliyligini qadrlaydigan va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konsitutsiyasi 2023- yil 30- aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2019 yil, 16-dekabr, O‘RQ №.595.

3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasi. 2019-yil 8-may, PQ-4312-son.

4. A.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2018

5. J.To‘lanov “Qadriyatlar falsafasi’Toshkent-O‘zbekiston-1998.

6. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova Maktabgacha pedagogika. “Tafakkur” nashriyoti Toshkent 2019.

BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mahmudova Bahora Bahodirovna-
Navoiy pedagogika texnikumi katta o‘qituvchi

Аннотация: Ushbu maqolada hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bog‘cha yoshdagi bolalarni tarbiyalashdam didaktik o‘yinlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.An’anaviy va noan’anaviy o‘yinlarning nazariy ahamiyati tadqiq etilgan.

Калит сўзлар: Birdamlik, tetiklik, quvnoqlik, tafakkur, tortinchoq, uyatchan diqqatni ko‘chuvchanligi va diqqatni bo‘linuvchanligi.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования дидактических игр в воспитании детей детсадовского возраста, одна из актуальных проблем. Исследовано теоретическое значение традиционных и нетрадиционных игр.

Ключевые слова: Солидарность, свежесть, бодрость, созерцательность, застенчивость, застенчивость объем внимания и объем внимания.

Annotation. This article discusses the theoretical and practical aspects of the use of didactic games in the upbringing of children of kindergarten age, one of the current issues. The theoretical significance of traditional and non-traditional games is studied.

Key words: Solidarity, freshness, cheerfulness, contemplation, shyness, shy attention span and attention split.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar qo‘yilmoqda. Mazkur vazifalarning muvoffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimi xodimlari, murabbiy-o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini mohiyatidan xabardorliklari hamda ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari, shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash nafaqat psixologik, balki pedagogikpsixologik, tibbiy-fiziologik va ijtimoiy jihatdan tayyorlansagina ish samarali tomonga siljiydi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarni to‘g‘ri, samarali tashkil etish esa bog‘chada, oilada mahallada tashkil etilgan ishlarning ilmiy asoslangan turlariga bog‘liq bo‘lib buning asosini esa didaktik, noan’anaviy o‘yinlar tashkil etadi. Bunday o‘yinlar bolalarning yoshiga, o‘tkazuvchilarning pedagogik mahoratiga, maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilish va uni qanday, qayerda, qachon tashkil etilishiga bog‘liq bo‘lib quyidagilar talab etiladi:

1. Bolalarda o‘yinga nisbatan qiziqishni oshirish.
2. O‘z qobiliyatlarini namoyish etishga imkon yaratish.
3. Boshqa bolalar va odamlar bilan musobaqaga kirishish.
4. Bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilishda mustaqillikni o‘rgatish.
5. O‘yinda bola bilmagan bilim, ko‘nikma va malakaning bo‘lishi.
6. Taqdirlash, baholash, ijodkorligini alohida ta’kidlash va h.k.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o‘yindir. O‘yinda yosh organizmga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi. O‘yin bola uchun ermak,quvonch manbai bo‘libgina qolmay, bola diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o‘stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan keying hayotida muhim o‘rin tutadi. O‘yin jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o‘stiradilar.

Noan’anaviy o‘yinlarni qiyosan bir necha mustaqil guruhlarga ajratish mumkin:

Idrokni o‘stirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay olishlari, ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchakni) bilishlari lozim. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning o‘lchami bo‘yicha terib chiqishni biladilar, 8-10 ta tayoqcha, doiracha yoki boshqa bir xil turdagi kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo‘yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3 xil o‘lchamda nomini ayta oladilar (uzunlik, kenglik, balandlik).

Diqqatni rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatining turg‘unligi, qo‘chuvchanligi, bo‘linuvchanligi kabi xususiyatlari shakllantiriladi.

Diqqatning bo‘linuvchanligi bir vaqtning o‘zida kishining ikki yoki undan ko‘proq narsa bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar 6-7 ta o‘rtasida diqqatni taqsimlay oladilar.

Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta-sekin ixtiyoriy diqqatga o‘tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullana olishini nazarda tutadi.

Xotirani o‘stirishga qaratilgan o‘yinlarga katta maktabgacha yoshdagi bola o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi, biror narsani eslab qolish, anashu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir.

Noan’anviy o‘yinlarni maktabgacha ta’lim muassasasida tashkil etishda, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos o‘yinlarni taklif etish kerak. Shu maqsadda noan’anaviy o‘yinlarni uch yoshli bolalar uchun o‘yinlar; to‘rt-besh yoshli bolalar uchun o‘yinlar; olti yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinlarni ajratish mumkin.

O‘yinlardan tashqari amaliy ishlar (o‘yinchoqlar bilan o‘ynash, yasash, yig‘ish va h.k.) ham o‘quv bilim jarayonini mustahkamlab bolalarni maktabga tayyorlashda asosiy omillardan hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, biz bolalar bilan olib boriladigan noan’anaviy o‘yinlardan misollar keltirmoqchimiz. Bu o‘yinlardan uyda, bog‘chada foydalanish mumkin, faqat qoidalariga e’tibor qaratish lozim. Avvalambor, o‘yinlarnng bolani maktabga tayyorlashdagi psixologik jihatlarini ko‘rib chiqaylik. O‘yin bola uchun ermak, quvonch manbai bo‘libgina qolmay, bola diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o‘stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan buyongi hayotida muhim o‘rin tutadi. O‘yin jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o‘stiradilar. Ota-onalar o‘zlari ham bolalargao‘yin mazmuni va yo‘nalishini taklif etishlari mumkin.

Bu o‘yinlarni qiyosan bir necha mustaqil guruhlarga ajratish mumkin. O‘yinlarning shunday alohida turkumi borki, ular bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashga yordam beradi. Har bir yosh guruhi uchun (3yoshdan 6yoshgacha) bu o‘yinlarning barcha turlari tavsiya etiladi.

Idrokni o‘stirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak)ni bilishlari lozim. Namunaga ko‘ra yoki nomi aytilgan ma’lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning o‘lchami bo‘yicha terib chiqishni biladilar, 8-10 ta tayoqcha,doiracha yoki boshqa bir xil turdagi kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo‘yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3xil o‘lchamda nomini ayta oladilar(uzunlik, kenglik, balandlik).

Navbatdagi o‘yinlar guruhi diqqatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular voqelikning ma’lum jihatlariga qarata diqqatni to‘plashga o‘rgatadi. (Diqqatni to‘plamasdan hech bir ishni bajarish mumkin emas). Bu o‘yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatini turg‘unligi biror narsa ustida uzoq vaqt diqqatni to‘plab tura olish, demakdir. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib bolalar 1-1,5 soatgacha uzluksiz shug‘ullana oladilar.

Diqqatni ko‘chirish – uni bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tkaza olishdir. Diqqatning bo‘linuvchanligi bir vaqtning o‘zida kishining ikki yoki undan ko‘proq narsa bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi. Kata maktabgacha yoshdagi bolalar 6-7ta narsa o‘rtasida diqqatni taqsimlay oladilar. maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta-sekin ixtiyoriy diqqatga o‘tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatini qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullana olishini nazarda

tutadi. O‘yinlarning yana bir turi xotirani o‘stirishga qaratilgan o‘yinlardir. Katta maktabgacha yoshdagi bola o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi – biror narsani eslab qolish, ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir. Agar bola topshiriqlarni bajarishga qiynalmasa, unga birmuncha murakkabroq topshiriq beriladi, agar qiynalsa, soddaroq topshiriq berish lozim. Topshiriqni bajara olmagani uchun uni koyish kerak emas.

Bolalarga u yoki bu narsalarni o‘rgatibgina qolmay, ularda o‘ziga ishonch, dadillik, fikrni himoya qila olish, qarorida qat’iy tura olish kabi hislatlarni ham tarbiyalash zarur. Bu ayniqsa, ijodiy topshiriqlarni bajarishga tegishli. Bola tanqidni to‘g‘ri tushunishi, o‘zining yangi g‘oyalarini dadillik bilan ilgari sura olishi kerak. Bu holda ham bolaning individual xususiyatlari, albatta, hisobga olinishi muhimdir. Agar u dadil, o‘ziga ishongan bo‘lsa, o‘z javoblarini tanqidiy baholashga o‘rgata boshlash mumkin. Agar tortinchoq, uyatchan bo‘lsa, uni qo‘llab – quvvatlash, har qanday tashabbusini ma’qullash lozim. Agar kichkintoy topshiriqni tez almashtirmoqchi bo‘lsa, pala – partish bajarsa, uni topshiriq bilan qiziqtirib, topshiriqning yangi jihat, tomonlarni topishga rag‘batlantiriladi. Aksincha bola topshiriqni bajarishda o‘ralashib qolsa, uni bir g‘oyadan boshqasiga o‘tishga undash lozim. Har bir o‘yin – bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti, hamkorlik maktabidir. Samimiylik, o‘zaro qo‘llab – quvvatlash, quvnoqlik, kayfiyatlarini yaratish bilan o‘yin orqali bola taraqqiyotiga erishiladi. Tavsiya etilayotgan o‘yinlarning har birini bitta bola bilan ham, bir necha bola bilan ham tashkil etish mumkin.

Agar butun oila birgalikda o‘ynasa, nur ustiga a’lo nur. Siz bolaga hadya etgan quvonch sizning ham quvonchingizga aylanadi, u bilan o‘tkazilgan har bir shodlik daqiqasi birgalikdagi hayotingizni yanada quvonchliroq, baxtliroq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov.A.A.,.Begmatova.N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. (o‘quv-uslubiy.qo‘llanma).Qarshi:.Nasaf, 2011.
2. Boqiyev R., R.Mehmonov, D.Xusniddinova. Bolalar bog‘chasida boshlang‘ich kompyuter savodxonligi. Toshkent: Iqtisod -moliya, 2010.
3. www.technomag.edu.ru
4. www.hrea.org/pubs/tips.html
5. www.press-service.uz

BOLALARDA INTERFAOL METODLAR VA O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Qo‘ldosheva Marifat Bahriddin qizi -
Navoiy pedagogika texnikumi yetakchi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar matematik tushunchalar berish va ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyachilar tomonidan interfaol metod va o‘yinlardan foydalanish haqida bayon etilgan.

Аннотация. В статье рассказывается, как познакомить дошкольников с основными математическими понятиями, а также об использовании педагогами интерактивных методов и игр в учебном процессе.

Annotation. This article describes how to provide preschool children with basic mathematical concepts and the use of interactive methods and games by educators in the educational process.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, matematik tasavvurlarni shakllantirish, tarbiyachi, metod va usullarning asosli tanlanishi, kichik sohasi bo‘yicha malakalar shakllanishi.

Ключевые слова: дошкольники, формирование математических представлений, воспитатель, разумный выбор методов и приемов, формирование навыков на малой территории.

Key words: preschool children, the formation of mathematical imagination, the educator, a reasonable choice of methods and techniques, the formation of skills in a small area.

“Matematika hamma aniq fanlarning asosidir.
Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi,
istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”.
Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni bilimli, salohiyatli qilib tarbiyalash va bu orqali yurtimiz farovonligini oshirish sanaladi.‘

So‘nggi yillarda matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’limning barcha bosqichlarida matematika fanini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish sari dadil qadamlar tashlanmoqda.

Bizga ma’lumki, pedagog va psixologlarning fikricha, bola 5 yoshgacha barcha bilimlarning 70 foizini o‘zlashtiradi. Mana shu yoshgacha bolaga eng kerakli bilimlarni yoshiga mos ravishda berish bolaning kelajakda qanday inson bo‘lishiga katta turtki bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik bilimlarning yetarli bo‘lishiga katta ahamiyat berish muhimdir. CHunki inson hayoti davomida matematik hisob-kitoblarga tez-tez duch keladi, ya’ni matematik bilimlar har qadamda kerak bo‘ladi. Agar biz maktabgacha yoshdan bolalarni matematika olamiga turli qiziqarli interfaol usullardan, o‘yinlar foydalangan holda olib kira olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak, ular maktabda a’lo baholarga o‘qib yuqori natijalarga erishadilar. Hayoti davomida xalqimiz uchun foydali kasbni tanlash va chuqur egallashda qiynalmaydilar. CHunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarishga albatta matematik bilimlar kerak bo‘ladi.

SHu sababli maktabgacha yoshdan bolalarga turli interfaol usullar, masalan, qisqa hikoya, kichik guruhlarda ishlash, muammoli topshiriqlar, amaliy ish, juftlikda ishlash, arifmetik masalalar bo‘yicha o‘yinlar va boshqalar orqali bolalarning yoshiga mos matematik bilimlar berib borishga katta ahamiyat berish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020 yil 31 yanvar kuni “Boy tariximizga munosib buyuk kelajagimizni barpo etadigan zamon keldi” mavzusidagi ilm-fanni rivojlantirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda “Joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo‘nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. SHuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag‘larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish kerak” ligi ta’kidlangan. Buni esa, aynan maktabgacha davrdan boshlash o‘rinli deb bilamiz.

Elementar matematika asoslarini o‘rgangan bola qurilish materiallarini farqlaydi va nomlarini to‘g‘ri aytishga o‘rganadi, lego, g‘isht, kublarning o‘ziga xos xususiyatlarini (mustahkamligi, shakli, rangi, kattaligi) bilib oladi. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida qurish yasash, konstruksiya jarayonida bolalar inshootning har bir qismini tahlil qiladilar, vazifalarini belgilashga, ishlarni mustaqil rejalashtirishga o‘rganadilar, qurilma-konstruksiyalar xaqida ma’lumot ega bo‘ladilar, qurilmalarni yasash yo‘llarini tushunib oladilar, pazl, mozaika va lego kabi o‘yinchoqlar yordamida kamida 16 ta bo‘lakdan iborat shakl yig‘ishga o‘rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga mos, pedagoglar uchun metodik jihatdan yordam beradigan, maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, kompyuter texnologiyalardan ilk qadamlarini bosish, matematik tasavvurlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan manba mavjud emasligi maktabgacha ta’lim sohasi oldidagi dolzarb muammolardan biridir.

SHu kunga qadar maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni, son-sanoq, miqdor, shakl, vaqt va fazoda mo‘ljalga olish bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda ko‘rgazmali, didaktik tarqatma materiallar, multimedia dasturlari, metodik qo‘llanmalar, mashg‘ulot ishlanmalari, interaktiv dasturiy ta’minot yetarli emasligi achinarli holat sanaladi. Biroq, MTT pedagog-tarbiyachilari turli interfaol metod va o‘yinlar orqali bolalarning matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, ularda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish mumkin.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi o‘qitishning har xil usullari - amaliy, ko‘rsatmali, og‘zaki, o‘yin usullaridan foydalanadi. Usulni tanlashda bir qator omillar - mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh va individual xususiyatlari, zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar hisobga olinadi.

Tarbiyachi tomonidan metod va usullarning asosli tanlanishiga, har bir aniq holda ulardan ratsional foydalanishga doimo e’tibor berib turishi quyidagilarni ta’minlaydi:

- elementar matematik tasavvurlarning muvaffaqiyatli shakllanishi va ularning nutqda aks ettirilishi;
- tenglik va tengsizlik munosabatlarini (buyumni soni, o‘lchami, shakli bo‘yicha) idrok qilish va ajratish, natijaviy munosabatlar (o‘lchami yoki soni bo‘yicha orttirish yoki kamaytirish)ni, analiz qilinayotgan ob’ektlarning miqdori, shakli, kattaligini umumiy belgi sifatida ajratish, aloqa va bog‘lanishlarini aniqlash malakasi;
- bolalar o‘zlashtirgan amaliy ish usullari (mas. qarshi qo‘yish, sanash, o‘lchash bilan taqqoslash)ni yangi sharoitlarda qo‘llashga yo‘naltirish va mazkur vaziyatda ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xossalar, bog‘lanishlarni aniqlash, topishning amaliy usullarini mustaqil izlashga yo‘naltirish.[1]

Interfaol metodlar va o‘yinlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi kichik sohasi bo‘yicha quyidagi malakalari shakllanadi:

- bolalarda bilim olishga faol qiziqishni namoyon bo‘ladi;
- o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.[2]

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishda foydalaniladigan interfaol metod va o‘yinlardan namunalarni tavsiya etamiz:

Geometrik shakllar. Tarbiyachi bolalarni gilam ustida ikkita komandaga bo‘ladi (uch-to‘rtta komanda qilish ham mumkin). Guruhlarda bolalar soni teng bo‘linadi. Guruhdagi bolalar gilam ustida aylana bo‘lib o‘tirib olishadi. Bolalar orasiga turli xil geometrik shakllar yig‘ib qo‘yiladi. Tarbiyachi tomonidan guruhlarga geometrik shakllarning biron nomi aytiladi va o‘sha shaklni guruh bolalari tomonidan aytilgan joyga kim tezroq olib kelish sharti topshiriq qilib beriladi. Masalan, kvadrat, aylana, uchburchak… Bolalar jamoasidagi bolalar bilan birga aytilgan shaklni topib, manzilga tezroq olib borishlari lozim bo‘ladi.

Tarbiyachi bolalarda kim tez topsa g‘olib bo‘lishi, xato qilmaslikni aytib o‘tadi. To‘g‘ri va tez topgan jamoa har safar belgilab boriladi yoki yulduzcha bilan taqdirlanib boriladi. Musobaqa oxirida yulduzchalar soni sanaladi va g‘olib jamoa aniqlanadi.

Matn. Istalgan gazeta yoki jurnalni olib, berilgan matndan biror harfni, masalan J yoki Rni o‘chirishni topshiring. Bunda u qatorma-qator harakat qilsin va vaqtni belgilab qo‘ysangiz ham yaxshi bo‘ladi. Misol yoki masalalar ham yechish mumkin (maktab dasturidan bo‘lishi shart emas) - agar matematik jarayonda butun jamoa qatnashsa juda qiziqarli bo‘ladi. Asosiysi - bu mashg‘ulotga musobaqa ruhini bag‘ishlash. Bola og‘zaki matematik yechimlar yechish jaryonida asta-sekin diqqatini jamlashni o‘rganib boradi. Avvaliga eng oson vazifalardan boshlab, keyinchalik ularni murakkablashtirib boring.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, maktabgacha yosh – bolalar bilimni elementar o‘rganishining davri hamda boshlang‘ich sinf o‘quv dasturini o‘zlashtirishining asosi sanaladi. Shu davrda tarbiyalanuvchilarning elementar matematik tushunchalarni oson o‘rganishi va bunda tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘yinlar va interfaol metodlar orqali yondashuvi juda muhimdir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. http://portal.spcenter.uz/project/952
2. https://znanio.ru/media/maktabgacha-yoshdagi-bolalarda-matematik-tushunchalarni-shakllantirishning-zamonavij-tehnologiyalari-2647305

BOLALARNI SAVODGA O‘RGATUVCHI O‘YINLARNI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI

Xodiyeva Mashhura Vahobiddin qizi –
Navoiy pedagogika texnikumi katta o‘qtuvchisi

Аннотация. Мазкур мақолада мактабгача таълим ташкилоти ўқув жараёнини ўйин технологияси асосида ташкил этиш ҳамда ўйин технологиясининг тузилиши, хусусияти, вазифаси ва бола ривожланишига таъсири ҳақида баён этилган.

Аннотация. В этом статье описывается организация образовательного процесса дошкольного образования на основе игровой технологии, а также структура, сущность, функции и влияние игровой технологии на развитие ребенка.

Annotation. This article describes the organization of the educational process in preschool education on the basis of game technology, as well as the structure, nature, function and impact of game technology on child development.

Калит сўзлар: технология, педагогик технология, ўйин технологияси, ўйиннинг вазифалари, ўйин хусусияти, педагогик ўйинларни таснифлаш.

Ключевые слова: технология, педагогическая технология, игровая технология, функции игры, особенность игры, классификация педагогических игр.

Key words: technology, pedagogical technology, game technology, game functions, game feature, classification of pedagogical games.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga, jumladan maktabgacha ta’lim tizimiga ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini amaliyotchi tarbiyachilar tomonidan o‘zlashtirilishi dolzarb muammolardan biridir.

“Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, “texne” – “mahorat”, “san’at” va “logos” – “ta’limot”, “o‘rganish” demakdir. Texnologiya so‘zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig‘indisi, shuningdek, ob’ektda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlari tushuniladi.

Ta’lim texnologiyasi tushunchasi ta’lim maqsadiga erishish quroli, ya’ni oldindan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta’lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta’limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta’lim maqsadining aniq shakllanganligi.

O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

L.S. Выgodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.

Har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

S.A.Shmakovning ta’kidlashicha, o‘yinlar quyidagi to‘rtta asosiy xususiyatga ega:

- **erkin rivojlantiruvchi faoliyat**, ya’ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o‘yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;
- **ijodiy xarakter**, ya’ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;

- **emotsional ta’sir** – bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g‘olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
- **asosiy va qo‘shimcha qoidalar** o‘yin mazmuni, uni mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

O‘yin strukturasiga maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O‘yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qarash mumkin.

O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub’ekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi.

O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi G.K.Selevko ta’biricha quyidagilarni qamrab oladi:

- o‘ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o‘yinda ishtirok etuvchilarning real o‘zaro munosabatlari;
- o‘yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun).

Har qanday texnologiyada, jumladan, o‘yin texnologiyalarida ham, o‘quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi uchun tarbiyachi bolaga nimani o‘rgatmoqchi bo‘lganligini bilishi kerak. Bitta mashg‘ulotda bitta maqsad qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k.

O‘yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalari uchun rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkuri rivojlantirish) amalga oshiradi.

Pedagogik ijrochilik o‘yinlarini bola uch yoshdan boshlab o‘zlashtira boshlaydi. SHu yoshga kelib bola odamlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o‘zida ichki kechinmalarni seza boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi.

Maktabgacha yoshda bolalar o‘yin faoliyatini o‘zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko‘taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o‘zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o‘ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muommolarni yo‘qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasiga ijobiy korretsiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag‘rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o‘yinlar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik o‘yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o‘yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta’lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, mahsulotli, ijodiy, psixotexnik o‘yinlar.

O‘yinlar metodlariga qarab: predmetli, syujetli, badiiy rolli, hodisalarni tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o‘yinlar.

Predmetlar asosidagi o‘yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar.

O‘yin vositalari bo‘yicha: o‘yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshq.) bilan amalga oshiriladigan o‘yinlar va o‘yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o‘yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o‘ynaladigan o‘yinlar, kompyuter va televizor o‘yinlari, o‘yinning texnik vositalari harakatlanuvchi va statsionar namunalar vositasidagi o‘yinlar.

Maktabgacha ta’limda yoshi kattalarning to‘plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o‘yinlar ta’lim metodi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin metodlariga qarab maktabgacha ta’lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, syujetli-ishchan, dramalashtirilgan o‘yinlardan keng foydalaniladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlarni o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llash quyidagi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi:

birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo‘ladi;

ikkinchidan, o‘yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g‘ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog‘ozlar, konstruktor–mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi;

uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta’minlash maqsadida ularni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig‘ida sifatli bajarilishini ta’minlash darkor.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o‘yinlar jarayonida bola passiv ob’ektdan faol sub’ektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o‘yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o‘yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to‘g‘ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o‘rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o‘yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo‘lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o‘yinlarni samarali o‘tkazish uchun quyidagi qoidalarga e’tibor berish lozim:

1. Mashg‘ulot oldidan bolalar o‘yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarni yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish.
4. O‘yin jarayonida bolalarga qiziq bo‘lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e’tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to‘g‘ri taqsimlash.
7. O‘yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O‘yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo‘lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga uni bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

METHODS OF USING GAMES TO TEACH PRONUNCIATION RULES IN PRESCHOOL EDUCATION

Boborahimova Khadicha -
English language teacher at Navoi Pedagogical Technical School

Annotation: The article deals with the development of children's oral speech in preschool education, grammatically correct formation of speech: correct pronunciation of sounds and words, fluency, timely identification of children with speech defects and help them.

Аннотация: Мақолада Мактабгача таълим муассасаларида болаларнинг оғзаки нутқини ўстириш, нутқини грамматик томондан тўғри шакллантиришга: товуш ва сўзларни тўғри талаффуз этишга, равон гапиришга, нутқида камчилиги бўлган болаларни вақтида аниқлаб уларга ёрдам бериш ҳақида ёритилган.

Аннотация: В статье рассматривается развитие устной речи детей в дошкольном образовании, формирование грамматически правильной речи: правильное произношение звуков и слов, беглость речи, своевременное выявление детей с дефектами речи и помощь им.

Keywords: Child's speech, morphology and syntax of speech, correct pronunciation, loud, unvoiced, sonorous sounds, upper lip, lower lip.

Калит сўзлар: Боланинг нутқи, нутқнинг морфологик ва синтаксис, тўғри талаффуз, жарангли, жарангсиз, сонор товушлар, устки лаб, пастки лаб.

Ключевые слова: Детская речь, морфология и синтаксис речи, правильное произношение, громкие, глухие, звучные звуки, верхняя губа, нижняя губа.

Preschool education is the first stage of lifelong learning, which involves the upbringing of a child formed as a healthy and full-fledged person who is ready to go to school.

In order to prepare a child for a successful education in school, it is necessary to create appropriate conditions for him to master all the riches of the language. The development of a child's speech depends in many respects on his psyche, healthy, alert growth, moral qualities, ensuring the proper execution of the curriculum, the similarity of the manuals. These issues need to be addressed in pre-school education and focused on educating them to be fluent in their mother tongue. It is necessary to develop their speech in order to develop the mental process of children. The child’s ability to understand the meaning of each word should be appropriate to express it freely in their speech. A child who adapts to a system of concepts learns to summarize and express his or her thoughts.

One of the main tasks in the education of preschool education is to teach children their native language, speech development, speech communication, communication. Children's oral speech training focuses on developing their oral speech, grammatically correct speech formation: continuing to form morphological and syntactic aspects of speech: composing simple and compound sentences, teaching children to use all word groups, counting, adjective emphasis is placed on improving the ability to use adjectives correctly in verbs, pronouncing sounds and words correctly, speaking fluently, and telling independently.

The richer and more accurate children’s speech is, the easier and easier it is for them to express their thoughts to others. Any speech disorder affects a child’s behavior and activities. As a result, the child becomes poorly mastered in school and does not believe in his own strength. In preschool education, it is important to teach children to pronounce sounds correctly and clearly during the literacy period. But the role of the family in solving such an important issue is also great. Any work done in kindergarten cannot give good results without the help of parents. In order to teach the correct pronunciation of sounds, it is necessary to hold a game with children in the family every day or every other day. Classes with five- and six-year-olds are best done standing in front of a window. Because children see the movements of their speech apparatus through the mirror. Through specific goal-oriented exercises, parents can help their children to pronounce correctly one or another sound that is not well pronounced. In the pre-school group there are exercises for whistling (sliding), whistling, loud, unvoiced, sonorous (L, R) sounds and sounds.

Parents should keep the following in mind when dealing with their children:

1. Choose a set of exercises that will help you pronounce a mispronounced sound correctly;
2. Do not force the child to exercise, exercise should be in the form of a game;
3. No more than 2-3 exercises per session;
4. Switch to another exercise only after mastering one exercise;
5. Perform certain exercises while someone is counting, thereby ensuring that children are able to stabilize important positions of the tongue and lips;
6. If the child develops the necessary sound, the sound generated by the speech therapist should be included in the child's speech, teaching them to use them correctly in words and sentences;
7. Children 6-7 years old should practice on distinguishing s-sh, z-j, b-n, l-r and sounds.

Any complexes are performed by performing the following exercises. The following are examples of exercises and sets of exercises:

Exercise "Building a wall"

Objective of the exercise: To develop the ability to open the space between the teeth a little and keep the smile. To do this exercise, you need to smile with the upper and lower teeth visible, without exerting effort. To show children how to do this, you need to pronounce the I sound. During the count from one to five or ten, the lips should be kept in a smiling position.

Methodical instructions:

1. While smiling, do not touch the upper lip to the upper teeth.

2. If the child is unable to show his lower teeth, the lower lip should be lowered while closing the lips. This exercise can be done first as follows: Place the finger under the upper lip, bend the lower lip down and lift it. In this case, the teeth are clenched, the lower jaw is immobile.

Pipe-making exercise

Objective of the exercise: To develop the ability to move the lip forward.

Execution of the exercise: Stretch forward like a tube with the lips closed. In this case, count from one to five or ten. Parents should pay attention to the following when performing this action.

1. When opening the lip forward, do not open the mouth, keep the teeth together.

2. If the child cannot stretch his lips forward like a tube (1.5-2 cm away from the lips), offer to stretch the lips to the candy and take it with his lips. Then the following complexes are performed:

Exercise "Language Expansion"

The purpose of the exercise: To teach the tongue to hold in a relaxed position.

Execution of the exercise: Smile, open the mouth slightly and place the front wide edge of the tongue on the lower lip. In this case, count from five to ten.

Methodical instructions: 1. Lips should not be in a state of intense laughter. 2. The lower lip should not be twisted. 3. The tongue should not be stretched too much. The tongue can only cover the lower lip. 4. Keep the sides of the tongue touching the corners of the mouth. 5. If children do not succeed in the exercise, the “punish the disobedient language” exercise should be repeated.

Exercise "Punishment of disobedient language"

Content of the exercise: Helping to relax the muscles of the tongue. This exercise is performed as follows: to keep the tongue wide and calm, the mouth should be opened slightly, the tongue should be gently placed on the lower lip, and the tongue should be whispered “pya-pya-pya” with the upper lip. Open your mouth and keep your wide tongue in a calm position until you count to 1-5 or 10.

Methodical instructions: 1. The lower lip should not be twisted as much as possible and should not touch the lower teeth. 2. The tongue should be wide and its edges should touch the corners of the mouth. 3. Whispering the tongue with the lips should be repeated several times in one breath. The child should not hold the exhaled air. To control this, he should bring a piece of cotton to his mouth. If the exercise is done correctly, the cotton will tilt to one side.

The educator’s job is to form the correct pronunciation of sounds in children, as well as to treat children with speech defects separately. The main purpose of this work is to identify the occurrence of speech defects in children, to understand the speech defects as early as possible and to consult a speech therapist in a timely manner. The form and content of the work on shaping the correct pronunciation of sounds are familiar to educators, but the speech therapist will be tasked with overcoming the shortcomings in the pronunciation of sounds. Speech therapists need to be properly assisted by educators in overcoming the child’s speech deficiencies. He should also be closely involved in the correct pronunciation of sounds during the lessons, in the correct planning and conduct of the lessons. One of the most successful ways to help speech therapists in this work is to hold seminars.

In conclusion, special conditions in preschool institutions and in the family are necessary for the timely and correct development of the child's speech. To do this: the child must be mentally and physically healthy, have normal mental abilities, have normal hearing and vision, have sufficient mental activity, have a need to talk, have a proper speech environment. The normal development of speech in a child allows him to constantly learn new concepts, expand his knowledge and imagination about the world around him.

LIST OF USED LITERATURE.

1. M.E.Xivatsiv. Speech therapy. M.1969.

2. R.Sh.Shomahmudov, L.R.Mo‘minova. "Speech defects in children and their elimination" 1993.

3. KS Shodieva "Teaching preschool children the correct pronunciation" 1995.

4. E.N. Nazarova. Logopedicheskaya ritmika. Tashkent, 2004.

TEACHING THE CONCEPT OF FRIENDSHIP TO PRESCHOOL CHILDREN

Toshmatova Sitora Ravshan qizi –
English teacher at Navoi Pedagogical Technical School

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning iste'dodlarini ochish, ular jamiyatda o‘zini erkin his qila olishi uchun kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishni amalga oshirish yo’l-yo’riqlari bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, idroketish, faoliyat, eslash, maktabgacha, tasavvur, madaniyat.

Аннотация: В этой статье исследуется коммуникативная способность дошкольников раскрывать свои таланты, чтобы они могли чувствовать себя свободно в обществе.

Ключевые слова: Ключевые слова: воспитание, познание, деятельность, память, дошкольное учреждение, воображение, культура.

Annotation: This article explores the communicative ability of preschoolers to discover their talents so that they can feel free in society.

Key words: upbringing, cognition, activity, memory, preschool, imagination, culture.

Small kids need companions yet don't generally have a clue how to treat them, so advancing heathy thoughts regarding fellowship in preschool is vital. Kids snickering with their arms around each other

Numerous preschool educators call their understudies "companions," yet do we ponder why? My explanation is clear: I call them companions since I need them to be companions. They're in preschool, and they'll presumably be together through eighth grade. That is quite a while to go to class with somebody you don't care for. While they will not all be close, I do need them to essentially treat each other like companions.

I once I educated at a mid year school, and one day an understudy was irate in light of the fact that another understudy said they weren't companions. One more instructor said to the irate understudy, "All things considered, you can't be companions with the entire world." I imagined that was a cop-out, a way for the educator to escape having a troublesome discussion with the understudy.

As a grown-up, I perceive that a few connections are undesirable. As a parent, for instance, you may not need your youngsters to play with specific different kids, and that is fine. Yet, an instructor needs to teach and really focus on their understudies as a whole, and that implies cultivating a positive study hall culture.

Little youngsters can regularly act in unsavory ways: They pitch uproarious attitude fits, direct mean sentiments toward companions and grown-ups with no regret, or abruptly hurt their colleagues over little things. Preschoolers don't have the tool kit to comprehend accepted practices, utilize fitting critical thinking abilities, or thoroughly consider an unfavorable circumstance. As frantically as they need companions, at times preschoolers don't have a clue how to treat them.

Some get too appended, some will allow others to take all of their toys to be loved, and some will utilize their "kinship" to make others give them what they need—"In case I'm not preferred choice, I'm not your companion." None of these sound especially solid, however they're normal of little youngsters. In any case, formatively suitable doesn't mean free pass—particularly with regards to the feelings of different understudies.

Companions in the classroom

So what's the arrangement? Showing youngsters fitting approaches to act with one another. We can show a few explicit ideas to assist understudies with building solid fellowships.

Companions can be frantic at one another: "You're not my companion any longer" is a typical hold back among little youngsters. I stress that being annoyed with somebody doesn't mean they're not companions and that as far as possible up to adulthood they will here and there get distraught at companions. We can train kids to pardon and furthermore let them in on their irate sentiments are substantial.

Companions don't generally need to play together: Healthy connection is significant, however we need to expressly instruct kids that since they're not close to their number one individual doesn't

mean the kinship is finished. You can approve this with another understudy: "I'm playing with vehicles now, and I'll play with you later." Teachers can change around who we invest energy with so understudies see us playing with everybody.

Companions can have different companions: It's OK to have others in our lives. One individual doesn't supplant another. I once got two of my colleagues and clarified that they were both my companions and, similarly as critically, that they were each other's also. Once more, we can expressly mention that occasionally kids play with their dearest companions and at times with others.

We care about everybody: As horrendous as it tends to be for a 3-year-old to observe another understudy having a hissy fit, it's the educator's activities that set the vibe for the class. It's a troublesome equilibrium to be both firm and mindful, however expressing and assumptions mean the world.

On the off chance that you need to give ramifications for an activity, recall that the class is watching. In the event that you blow a gasket, the children will know it. You don't need to assuage or pay off the problematic understudy, and you can (and ought to) set exclusive standards: "If it's not too much trouble, sit down in the break corner, and you can get back to circle time when you're not kidding." But be evident that you need that kid to rejoin the remainder of the class, when they're prepared.

Underline that results are set up to guard everybody, and now and then understudies need to quiet down prior to returning to the gathering. There are no terrible children. In the event that a youngster is experiencing difficulty, show that you care about them—on the off chance that you care regarding that understudy, the remainder of the class will as well.

The more exertion you put into cultivating positive associations with your group, the more they'll play and work together, cry and snicker together. Utilizing these procedures, I see huge loads of sympathy in my group by May.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING TARIX TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Normurodov Jamshid Orif o‘g‘li-
Navoiy pedagogika texnikumi Tarix fani o‘qituvchisi

Axloqiy jihatdan yetuk, axloqan barkamol, ma’naviy go‘zal insonni tarbiyalab jamiyatga yetkazish muammosi asrlar davomida kishilik jamiyatining muammosi bo‘lib keldi va bugun ham mustaqillikka erishgan O‘zbekistonda ham g‘oyat dolzarb masala bo‘lib kelmoqda.Xalqimizda axloqiy tarbiya maktabining ildizlari juda teran, baquvvat bo‘lib, biz bugungi avlod vakillari bunga qayta qayta murojaat qilamiz, bahramandlik tuyamiz. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida mamlakatimizni isloh qilish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda biz milliy qadriyatlarimiz, urf odat va an’analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga katta e’tibor qaratmoqdamiz.

Biz shunday yurtda yashaymizki, unda millatlar va dinlararo tinchlik totuvlikni mustahkamlash, ma’naviy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish, tarixiy ildizlarimizga, milliy o‘zligimizga qaytish, aholining siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizga xos bo‘lgan hamjihatlik va bag‘rikenglik, mehr oqibat, mehmondo‘stlik va saxovat kabi insoniy fazilatlar muhiti avvalo oiladan shakllantirilsa, maktabgacha tarbiya maskanida bu ma’lum bir tartibga solingan, yosh va iqtidor inobatga olingan holda rivojlantiriladi. O‘tmish ma’naviyatida, odob axloqiy fazilatlarida o‘rganadigan o‘gitlarimiz mazmunan boy va cheksizdir. SHuning uchun maktabgacha tarbiya maskani tarbiyalanuvchilari bilan tashkil etilajak mashg‘ulot mavzusidan kelib chiqib, ma’naviy axloqiy tarbiyaning ilk kurtaklari bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi ... qadimgi afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, maqollarda o‘z ifodasini topgani singdirilishi kerak. Misol uchun ulug‘ siymolar tavallud kunlari munosabati bilan o‘tkaziladigan, “Millatimning ikki tog‘i” – deb nomlangan tadbirda Zahiriddin Muhammad Bobur va Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolarning o‘git, nasihat va dono fikrlarini bolalarga o‘rgatish mumkin. Ta’lim tarbiyaga oid

madaniy merosdan, axloqiy qadriyatlardan foydalanib tashkil etiladigan darslar Markaziy Osiyoda falsafiy, ma'naviy axloqiy, ma'rifiy tafakkurning ilk kurtaklari bo'lmish manbalarda namoyon bo'lishini anglagan holda "Qobusnoma", "Ahloqi Muhsiniy", "Makorimul ahloq", "Tuhfat – ul Abror" kabi pandnomalardan foydalanish joiz. Alisher Navoiy hazratlarining o'lmas merosi bo'lgan asar qahramonlari Farhod, Shirin, Shopur, Bahromlarning yuksak ahloqiy fazilatlarini, komil inson qiyofasida bolaga yetkazish mumkin.Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda ta'lim qanchalik muhim sanalsa, tarbiya ham dars sifat darajasini oshirishning omili bo'lib qoladi. Shu o'rinda maktabgacha tarbiya maskanidan boshlaboq bola tarbiyasi uchun zarur sanalgan ta'lim tarbiyaning uzviyligi tizimini keltirib o'tsak:

1. Bolaga o'qish va yozishni o'rgatish;
2. Diniy ahloqiy tarbiya;
3. Harbiy, jismoniy tarbiya.
4. Ezgulikka, halollikka, poklikkao'rgatish;
5. Yigitlarda g'urur, mehr oqibat, to'g'ri so'zlik, iroda;
6. Qizlarda sharm – hayo, iffat, halol bilan haromni farqiga borishni o'rgatish;
7. O'smir yoshlarga adolat, sahiylik, ota – onani hurmat qilish, yetimlarga g'amxo'rlik, kamtarlikka o'rgatib boriladi.

Maktabgacha ta'lim maskanidan uzluksiz ta'limning barcha yuqori bo'g'inlarigacha bunday tarbiyaning mazmuni va nazariy jihatlarini ketma ketlik asosida olib borish kerakki, bu jamiyaning rivoji uchun dasturamal bo'lsin. Bolalarni hunarga yo'naltirish ham ulardagi odob ahloqning darajasiga bog'liqdir. Yusuf Xos Xojib aytganlaridek, "... bolaning kundalik hayotida ahloq odobli bo'lishi uchun o'z vazifasini sarishtalik bilan o'z vaqtida bajarishi uchun go'dakligidan tarbiyalanmog'i lozim."[1]

Ta'limning muhim bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim tizimida Uyg'onish davri mutafakkirlarining ilmiy, ma'naviy merosidan foydalanib dars tashkil etish, yoki dars jarayonlariga bunday ma'naviy meros durdonalaridan foydalanishning ahamiyati ta'lim tarbiya uchun juda muhimdir. O'qituvchining maqsadi bir narsaga, ya'ni mehnatkash, zamon bilan hamnafas fuqaroni tarbiyalashga qaratiladi. Ya'ni inson bolaligidanoq o'z mehnatining mahsulini kutishni bilsin, undan faxrlanishni o'rgansin. Shunday ekan, axloqiy tarbiyaga qaratilgan, maktabgacha ta'lim o'chog'i darslarida boladagi faxr tuyg'usini kuzatib borish uchun tashkil etilishi rejalashtirilgan har bir dars mazmuni zamonaviy ravishda belgilab olinishi kerak. Odob ahloq borasida bajarilgan ish natijasidan, bola o'zi o'rgangan rivoyat, hikoya, she'r, matn yoki kichik bir tarbiyaviy ko'rinishdan faxrlansin. Bu holat bolani faqat tarbiyalamaydi, unga keyingi mashg'ulotni orziqib kutishini ta'minlaydi. Bola bajargan ishini uzoq vaqtgacha aytib, bajarib yuradi. U mehnatga o'rganadi, ko'nikma hosil qiladi. Zero "O'z mehnati mahsulidan faxrlanmaydigan haqiqiy insonning o'zi yo'q!"[2] Maktab ta'limi uchun zarur bir narsa borki, o'qituvchining mahoratiga chambarchas bo'lgan vaqtni tejash masalasi. Dars rejalashtirayotgan o'qituvchining hammasi ham vaqt bilan yetarlicha hisoblashmaydi. Vaholangki, bu juda muhim. Ulug' pedagoglarimiz barchasi ta'lim bmlan tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash haqida gapirganlarida bitta maqsadni, komil insonni tarbiyalash, voyaga yetkazishni niyat qilganlar. Bugungi kun zamonaviy tarix fani o'qituvchisi oldida turgan asosiy vazifa ham aynan shunga qaratilgan. O'z kasbini sevadigan pedagogda hamma dars ham mahorat bilan olib boriladi.

Umumta'lim maktabi 6-sinf tarix darslarida "Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning ta'lim va tarbiya borasidagi qarashlarini" o'tilayotgan har bir darsda singdirib borish mumkin. Misol uchun XI asrning qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniyning ahloqiy qarashlaridan tarix dars jarayonlarida foydalanish, darsda yangilik kiritishdan tashqari, o'quvchi bilish qobiliyatini o'stiradi. Olimning ahloqiy qarashlarida komil va ma'rifatli inson masalasi o'ziga xos talqinga ega. Abu Rayhon Beruniyning "Yodgorliklar", "Kitob as – saydana" , "Maqollar", "Al qonuni, al - Ma'sudiy" kabi asarlarida odob, ahloq, mehnat tarbiyasi masalalariga e'tibor qaratilagan. Shuningdek, olim insonning eng nozik ahloqiy sifatlarini ta'riflab beradi. Bunday matnlardan tarix darslarida foydalanish, nazariy bilimlarni amaliy jihatini ham namoyon etadi.Ilm ahloqni nafosat bilan bog'lab bolaga yetkazish zamonaviy tarix fani o'qituvchisidan ko'p izlanish, mehnat, tajriba talab etadi. Beruniyning " ... aqliy qobiliyatlar odamning kundalik ehtiyojlari asosida vujudga kelsa, ahloqiy masalalar tarixiy taraqqiyot, odamlarning o'zaro munosabatlari bilan chambarchas holda paydo bo'ladi va rivojlanadi", - degan fikrini o'qituvchi dars jarayonida o'quvchiga shunday yetkazishi kerakki, bola tarix fani uning uchun fanlarning a'losi, tarbiya vositasi deb qaraydigan bo'lsin. Barcha illatlarning asosiy

sababchisi bilimsizlik ekanini tushuntirib borish kerak, Bilimlarni egallashda esa bolada intilish, qiziqish, ijtimoiy tinch muhit zarur bo‘ladi. Beruniy inson kamolotidagi uch narsaga to‘xtalib o‘tadi, bular:

1. Ilm fan ham e’tirof etayotgan irsiyat masalasi;
2. Ijtimoiy muhit;
3. To‘g‘ri ta’lim tarbiyadir. Shuningdek, Beruniy nazdidagi komillik bu ko‘p bilimga ega bo‘lgan yuksak ahloqiylikdir.

Yuqori sinf o‘quvchilariga O‘zbekiston tarixi fanini o‘tish paytida o‘qituvchi Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarixga, davlatchilik masalalariga qarashlarini gapira turib, uning “Yoshlarga murojaat” maqolasidan quyidagi parchani keltirib o‘tishi mumkin. “... naqadar ilmi zamonaviy ko‘p o‘qilsa, insonning aqidasi shuncha mustahkam bo‘lur, hatto lozim bo‘lganda mulkingizni sotsangizda, o‘g‘lingizni zamoncha o‘qimog‘i sag‘iy qilingiz”. [3] Ma’lumki Markaziy Osiyo ma’naviy taraqqiyotidaTemuriylar hukmronligi davri alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tabiiy fanlar taraqqiyoti yuksak darajaga ko‘tarilgan bu davrda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Husain Voiz Koshifiy kabi ilm ahlining homiylari yetishib chiqdi. Sharq ahloq durdonasi deb baholashga arziydigan, Husain Voiz Koshifiyning “Ahloqi Muhsiniy” asaridan tarix darslarining barcha mavzularida foydalanib borish mumkinki, bundagi bayon etilgan fikrlar kishini yaxshi xulqqa, faqat ezgulikka, shukr va sabrlilik, hayolilik, poklik, oliyhimmatlik, sobitqadamlik, adolatlilik, marhamatlilik, shafqatlilik, hamda ahloqiylilikka chorlaydi. Koshifiy “Chiroyli xulq va muloyimlik bayonida” o‘quvchini farosatli bo‘lib, sir saqlash xulqiga rioya qilishga, ohistalilik, andishalilik, doimo shijoat, g‘ayrat, fursatni g‘animat bilishga o‘rgatish lozim deb ta’kidlaydi. [4]Xulosa shuki, maktab tarix darslarining hammasida ham, ya’ni O‘zbekiston tarixi, Jahon tarixi darslarida ham bunday ahloqiy tarbiya manbalaridan yetarlicha foydalanishimiz mumkin.

Ma’naviy ahloqiy tarbiyaning ko‘pgina masalalari Abu Ali ibn Sinoning “Uyun – al – hikma” (Hikmat buloqlari) asarida bayon etilganini bilamiz. Zamonaviy tarix o‘qituvchisi tarix fanini mukammal o‘rganish uchun qator talablar qo‘yadi. Ya’ni tarixiy bilimlarni odob – ahloqqa doir tarbiyaviy jihatlar bilan uyg‘unlashtirilishi yoshlarni chinakkam mutaxassis, o‘z kasbining ustasi bo‘lishi uchun yo‘l yo‘riq ko‘rsatib boradi. Axir tarix fani ayrim fanlardan farq qilib, kishining xulqi, fe’l atvori ustidan hukmronlik qiladi. Chunki, yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu fan bevosita axloq odob fani bilan bog‘liqdir. Birgina Amir Temur davlati tarixini o‘tish jarayonida XI asrning buyuk shoiri va mutafakkar Yusuf Xos Xojibning ahloqiy kamolot borasidagi qarashlarini mavzuga dahldor tarzda chiroyli qilib tashkil etish o‘qituvchining mahorati va mas’uliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Misol uchun Amir Temur shaxsiga ta’rif berish bosqichida zamonaviy tarix fani o‘qituvchisi u kishi o‘z maqsadiga yetishi uchun yaxshi ahloq mezonlariga qat’iy amal qilishi, jamiki yaxshiliklarga ega bo‘lgan yuksak ahloq egasining ulug‘ sifatlari aytib o‘tiladi. Yusuf Xos Xojib aytib o‘tganidek, ilm ma’rifat yordami bilan o‘z davrining ahloqiy muhitini sog‘lomlashtirish uchun butun kuch quvvatini sarf etib davlat tuzgan ulug‘ sarkardaning hayot yo‘li Amir Temur siymosida shakllanishini ta’kidlash joiz. Amir Temur bilim olishga oqilona yondashgani, davlat boshqaruvida eng asosiy masala aql va zakovat bilan ish tutganini, insoniy fazilatlarni o‘zida bekamu ko‘st mujassam ekanligini dars davomida aytib o‘tish kerak. Bunday darsni o‘tish barobarida o‘quvchida yangi bilimlar bilan birga, nutq madaniyati rivojlanadi, bilim olishga oqilona yondashadi, o‘rganilayotgan mavzuni qiyosiy tahlil qila oladi. Eng asosiysi ulug‘likka yetaklovchi sifatlarni o‘zida tuyadi, uni anglaydi, his etadi. Amir Temur ham Alisher Navoiy kabi sahovat va himmat insoning eng yuksak fazilatlaridan biri deb hisoblaydi. Sohibqiron insonga xos bo‘lgan fazilatlarning o‘z tabiatiga ko‘ra yaxshilik sari va muxtoj kishiga foyda keltirish sari harakatda bo‘ladi deb hisoblaydi. Amir Temur o‘zining ta’lim tarbiya xususidagi qarashlarini o‘zining hayot maktabida ommalashtiradi.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, ma’naviyatimiz bosib o‘tgan ulug‘ yo‘l, buyuk mutafakkirlariimzning ma’naviy ahloqiy tarbiya borasidagi betakror g‘oyalarini qisqacha mundarijasini uzluksiz ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida qo‘llash mumkin. Bebaho meros qoldirgan ulug‘ ajdodlarimizning ma’naviy merosi, ahloqiy tarbiyaga oid qarashlari bir xazina, u bir ulkan ummon kabi, tubiga yetib bo‘lmaydi. Uni o‘rganaverish, amaliy tarbiyaviy ish jarayonida qo‘llash zamonaviy dars oldidagi vazifa hisoblanadi.

BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING ZAMONAVIY INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNI TASHKIL QILISHDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASHGA O‘RGATISH MASALALARI

Otamurodova Aziza Sultonmurodovna-
UrDPI “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
orcid.org/ 0009-0000-1805-7257
F.F.Sadullayeva Feruza Farxod qizi -
UrDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lg‘usi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining zamonaviy integratsiyalashgan ta’limni tashkil qilishda axborotlar bilan ishlashga tayyorgarligi tahlil qilingan. Integratsiyalashgan ta’lim mazmuni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, tanqidiy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik yo‘nalishdagi talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Аннотация. В статье проанализирована готовность будущих учителей начальных классов к работе с информацией в условиях современной интегрированной системы обучения. Освещается значение интеграции предметов, использование информационно-коммуникационных технологий, а также формирование навыков критического и системного мышления. Представлены практические рекомендации по развитию информационной компетентности студентов педагогических направлений в вузах.

Annotation. This article analyzes the preparedness of future primary school teachers to work with information in the context of modern integrated education. It highlights the importance of integrated approaches, the use of information and communication technologies (ICT), and the development of critical and systematic thinking skills. Practical recommendations are provided for improving the information competence of pedagogical students in higher education institutions.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim, axborotlar bilan ishlash, raqamli savodxonlik, pedagogik tayyorgarlik, zamonaviy ta’lim.

Ключевые слова: начальное образование, интегрированное обучение, работа с информацией, цифровая грамотность, педагогическая подготовка.

Keywords: primary education, future teacher, integrated education, working with information, digital literacy, pedagogical training.

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ta’lim tizimida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sohasida kelajak avlodni zamon talablariga mos, har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishda o‘qituvchining roli beqiyos. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari nafaqat o‘z fanidan chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki zamonaviy ta’lim metodlarini, xususan, integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishda axborotlar bilan samarali ishlash malakasiga ham ega bo‘lishi zarur.

Integratsiyalashgan ta’lim — bu turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochish, bilimlarni yaxlit holda yetkazish orqali o‘quvchida kompleks dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ta’limiy yondashuvdir. Bu yondashuv:

- bilimlar orasidagi uzviylikni ta’minlaydi;
- o‘quvchining tanqidiy fikrlashi va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishiga xizmat qiladi;
- turli fanlar va real hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglatadi.

Integratsiyalashgan ta’limni samarali tashkil qilish uchun o‘qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, metodik bilim, shuningdek, axborot bilan ishlash ko‘nikmasi talab etiladi. Integratsiya jarayoni orqali kichik maktab o‘quvchilari olamni bir butunligicha qabul qilish bilan xarakterlanadi. Ularning aqliy salohiyati, dunyoqarashini boshlang‘ich ta’limdanoq kelajakka raqobatbardosh, o‘tkir zehnli qilib tarbiyalash integratsiyaning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining zamonaviy, integratsiyalashgan ta’limni tashkil qilishda axborotlar bilan ishlashga o‘rgatish masalasi, o‘quvchilarni zamonaviy dunyo talablariga moslashtirishda hamda axborotlar oqimi orasidan zarurini ajratib olish, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o‘qituvchilarga o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Yurtimizda yoshlarning bilim olishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan va bular qonuniy asoslarga ega. Muhtaram Prezidentimizning 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931 sonli qarori intelektual, yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Integratsiya - bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog‘liqlikdir.

Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan. Ulug‘ didaktik Yan Amos Komenskiy ta’kidlashicha: “Bir biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o‘rganilishi kerak”. “Ta’lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak”. Pestalotsi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto mazmunining aniqlashishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak. Pestalotsi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavliligini ta’kidlaydi.

Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo‘ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o‘rta maktablarining katta sinflarida o‘z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o‘z ichiga oluvchi “Yerni o‘rganish” fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan “Fuqaro tarbiyasi” deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan.

NATIJALAR

Birinchi navbatda, fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish uchun qaysi darslarning bir-biriga mos kelishini aniqlash lozim. Tushunchalarning, ma’lumotlarning mazmuni o‘zaro yaqinligi va mantiqiy aloqalariga qarab integratsiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Integratsiyalash jarayonida dars va darsliklar orasida vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda mos tushushini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Aloqaga kirishayotgan tushunchalar bir-biriga mos bo‘lishi, bir-birini to‘ldirishi ahamiyatlidir. Darsliklar asosida integratsiyalashning vertikal uslubi o‘quvchi bir tushuncha o‘rganib bo‘ldi, keyinroq boshqa fanda shu tushunchaga mos bo‘lgan atamaga duch kelsa, ma’lumot sifatida oldin o‘rganilgan tushuncha yodga olinadi va bu tushuncha bilan birlashtiriladi. Natijada, ma’lumotlar bazasi kengayadi, o‘quvchilar bilimlarni aniqroq va puxtaroq egallaydi. Gorizontal yo‘nalishda integratsiyalash ma’lum bir kichik davr oralig‘ida bir tushunchaning ko‘plab variantlari bilan ishlash jarayoni tushuniladi.Vertikal bog‘lanishda oldinroq olingan bilim to‘liq holda yodda saqlanmay qolishi mumkin, gorizontal yo‘nalishda bir vaqtning o‘zida bir necha ma’lumotlar bilan ishlanadi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda ta’limning rivojlanayotganini o‘quvchilarning intelektidan bilish qiyin emas. Endilikda sodda, odatdagidek darslar o‘quvchilarni qoniqtirmaydi. Ta’lim ham zamon bilan hamnafaslikda o‘sib bormoqda, o‘quv jarayonini mukammal va sifatli bo‘lishi uchun kerakli barcha jihozlar bor. Faqatgina metodist ulardan to‘g‘ri foydalanib, mavzuga mos bo‘lgan metodlarni tanlab, bilim berish jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olsa bo‘lgani. Ta’lim berish jarayonida integratsiyalashgan bilimlardan foydalanish, odatdagidan ko‘proq ma’lumotlar olish mumkinligi hammaga ayon.

Integratsiyalashgan darsda o‘quvchi o‘rganayotgan tushunchasini bir tomondan emas, balki boshqa sohalarda ham shu tushunchani qo‘llanilishini va olayotgan bilimlari to‘liq va asosli bo‘lishini ta’minlaydi. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning hayotida barcha narsalar uzviyligini tabiatan tushunib yetishga o‘rgatadi. Kichik maktab yoshidagilar uchun fanlararo aloqadorlik kam ishlab chiqilgan. Integratsiyalash asosida o‘rganilayotgan obyektning butunligi

tartibga solinadi va o‘quv fanlari mazmunini tizimli yondashish asosida soddalashtiriladi va aniqlashtiriladi. Zamonaviy metodikada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi eng sodda va eng samarador yo‘li tanlab olinadi. Ma’lumotlarni integratsiyash zamonaviy metodikaning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

XULOSA

O‘qituvchi darslarni integratsiyalash orqali turli fanlarni kuzatishlari mumkin va olingan xulosalar asosida ma’lumotlarni kengaytirib, tasdiqlab olish imkoniyatiga ega. Ammo ma’lumotlar bazasini o‘quvchilarning yosh xususiyatiga moslab jamlagan ma’qul. Negaki, haddan tashqari ko‘p ma’lumotlar va bolaning yoshiga mos bo‘lmagan tushunchalarning dars davomida qo‘llanilishi o‘quv faoliyatining inqiroziga olib kelishi aniq. Bu jarayonda o‘quvchiga mavzu qiziq tuyilmaydi. Haddan tashqari ko‘p ma’lumotlar uni charchatadi, zeriktiradi, asabiylashtiradi. Eng asosiysi, bola asosiy negizidagi sodda tushunchani farqlamaydi va o‘zlashtira olmaydi. Buning oldini olish uchun o‘qituvchi yuqorida keltirilgan ilmiy asoslangan manbalar va berilgan takliflarni inobatga olishi kerak. Bayon qilingan pedagogik va psixologik dalillar ta’limning barcha bosqichlarida integratsiyalashning mazmunini yoritib bera olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “Q” harfi. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 143-b.

2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi-T.: “ILM ZIYO”, 2009. 15-b.

3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 396-b.

4. https://lex.uz

JAMIYAT VA MADANIYAT KONTEKSTIDA HUQUQIY TAFAKKUR: FALSAFIY TAHLIL

Abdullayeva Surayyo
Navoiy davlat universiteti
surayyoafruza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy tafakkur ijtimoiy jamiyat va madaniyatda antropologiya nuqtai nazaridan o‘rganiladi, e‘tibor rasmiy dogmalar va institutlardan aniq inson jamoalarida huquqning yaratilish, legitimlashtirish va amal qilish jarayonlariga qaratiladi. Ishning maqsadi huquqni madaniy hodisa, ijtimoiy amaliyotlar, e‘tiqod tizimlari va kundalik hayot tuzilmalariga singib ketgan holda ochib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *jamiyat, madaniyatda oddat huquqi, huquqiy plyuralizm, normativ tizim, legitimlik, ijtimoiy tartib, madaniyat, simvolik kapital.*

An’anaviy huquqshunoslik huquqni mavhum, universal normalar tizimi, davlat tomonidan o‘rnatilgan va tasdiqlangan deb qaraydi. Biroq, zamonaviy davrdan boshlab G‘arb huquqiy tafakkurida hukmron bo‘lgan ushbu model, huquq *aslida* qanday yashashi, odamlar tomonidan o‘zlarining aniq ijtimoiy dunyolarida qanday tushunilishi va idrok etilishi masalasini chetda qoldiradi\[1]. Mahalliy jamoalarning empirik tadqiqotiga e‘tibor qaratadigan ijtimoiy antropologiya asosan boshqacha nuqtai nazarni taklif etadi: huquqni *ijtimoiy fakt* sifatida, madaniyat, iqtisod, din va qarindoshlik munosabatlaridan ajralmas holda.

Tadqiqot ob’ekti qonun matnidan ko‘ra, ko‘proq "yashovchi huquq" (E. Erlich tomonidan kiritilgan tushuncha) – nizolarni hal qilishning haqiqiy amaliyotlari, to‘g‘ri va adolatli narsa haqidagi tushunchalar, ijtimoiy tartibni saqlash mexanizmlariga aylanadi. Shunday qilib, huquqiy tafakkurga ijtimoiy-antropologik yondashuv normativ reallikning *qanday qilib* jamoat ongida qurilishini, uni qanday simvollar va marosimlar qo‘llab-quvvatlashini va ichki va tashqi omillar ta’sirida qanday o‘zgarishini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Tarixiy jihatdan, huquqiy antropologiya bir necha bosqichlardan o‘tgan, ularning har biri huquqiy tafakkurning xususiyatlari haqida o‘z qarashini shakllantirgan: Evolyutsionizm (19-asr – 20-asr boshlari, L. H. Morgan, G. Meyn, E. B. Taylor): Huquqiy tafakkur oddiy shakllardan murakkab

shakllarga progressiv rivojlanish mahsuli sifatida qaraldi. U "zamonaviy" huquqni shartnoma va shaxsiy huquqlarga asoslangan, "arxaik" yoki "oddiy" huquq esa maqom va jamoa mas'uliyatiga asoslangan deb qaradi (G. Meynning formulasi "Maqomdan shartnomaga"). Bu yondashuv bugungi kunda etnosentrizm uchun tanqid qilinsa-da, birinchi bo‘lib huquqiy tizimlarning madaniy va tarixiy o‘zgaruvchanligi masalasini ko‘tardi.

Funksionalizm (B. Malinovski, A. R. Radklif-Braun): E‘tibor huquqiy normalar va institutlarning ijtimoiy yaxlitlik va muvozanatni saqlashdagi roliga qaratildi. Malinovski Trobriand orolliklarini o‘rganib, "ibtidoiy huquq"ning odatga ko‘r-ko‘rona rioya qilish emas, balki ijtimoiy almashinuv va barqarorlikni ta'minlaydigan o‘zaro majburiyatlarning oqilona tizimi (masalan, *kula*) ekanligini ko‘rsatdi. Bu erda huquqiy tafakkur ijtimoiy nazorat mexanizmining bir qismidir.

Talqiy antropologiya va huquq etnografiyasi (K. Girts)\[1]: Hozirgi zamonning eng ta'sirli yo‘nalishi. Girts huquqni qoidalar to‘plami sifatida emas, balki *"dunyoni idrok etishning o‘ziga xos usuli"*, jamiyat o‘zini talqin qiladigan ma'nolar tizimi sifatida qarashni taklif qildi. Girtsning fikricha, huquq har bir madaniyatga xos bo‘lgan "huquqiy sezgirliklarni" ifodalaydi. Masalan, islom *fiqhi*, hindu *darmasi* yoki afrikaliklarning oddiy huquqi nafaqat muqobil kodlar, balki tartib, adolat va haqiqatni konseptuallashtirishning turli usullaridir. Huquqiy tafakkur uning simvolik va semantik qatlamlarini ochib beradigan "qalin tavsif" ob'ektiga aylanadi.

Yozuvsiz va erta davlatli jamiyatlarda huquqiy tafakkur zamonaviy huquqdan farqlanadigan bir qator asosiy xususiyatlarga ega:

Golizm: Huquq muxtor soha sifatida *ajratilmagan*. U dinda, axloqda, odob-axloq qoidalarida va iqtisodiy amaliyotda erib ketgan. Normativ tartibga solish *odat* orqali amalga oshiriladi, u ajdodlar yoki xudolar tomonidan berilgan abadiy tartib sifatida idrok etiladi. Odatchilikka xilof ravishda harakat nafaqat "huquq" uchun, balki kosmik uyg‘unlik va butun jamoaning farovonligi uchun xavf tug‘diradi.

Protsessualik: Nizolarni hal qilish usullari (ommaviy munozaralar, sinovlar, qasamlar, oqsoqollar vositachiligi) ko‘pincha mazmuniy normalardan muhimroqdir. Marosim buzilgan tartib va ijtimoiy aloqalarni tiklaydigan dramaturgiya vazifasini o‘taydi. Jarayon raqobatli emas, balki yarashuv xarakteriga ega; maqsad aybni aniqlash emas, balki konsensusni tiklashdir\[2].

Jamoa mas'uliyati: Huquqiy tafakkur shaxsga emas, balki guruhga (qarindoshlar, urug‘, jamoa) qaratilgan. Jarimalar (masalan, qon o‘chash, tovon – vergeld) ham guruhga yo‘naltirilgan va undan kelib chiqadi. Shaxs faqat jamoa tanasining bir qismi sifatida mavjud.

Muayyanlik va kazuistika: Normlar mavhum tarzda emas, balki muayyan hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq holda shakllantiriladi (masalan, "Agar kishi tengi kishining tishini chiqarib tashlasa, unga ham tishi chiqarib tashlanadi"). Bu erda "inson huquqlari" mavhum tushunchasi tasavvur qilib bo‘lmaydigan narsadir.

Huquqiy antropologiyaning asosiy kashfiyotlaridan biri shundaki, davlatning huquqdagi monopoliysi ko‘proq ideologik afsona, reallik emasligidir. *Huquqiy plyuralizm* – bitta ijtimoiy maydonda bir nechta normativ tartiblarning (davlat huquqi, diniy huquq, oddiy huquq, kasbiy kodekslar va hokazo) birga yashashi – globalizatsiya davrida, ayniqsa, universal hodisadir\[3].

Shaxslar va guruhlar huquqning "iste'molchilari"ga aylanadi, ular ma'lum bir vaziyatda eng ko‘p foyda va'da qilgan normativ tizimni tanlaydilar (masalan, davlat sudiga yoki oqsoqollar kengashiga murojaat qilish, masalani Shariat yoki dunyoviy kodeks bo‘yicha hal qilish). Huquqiy tafakkur vosita va vaziyatli xarakterga ega bo‘ladi.

Normativ tartiblar vakuumda mavjud emas. Ular o‘zaro bir-biridan tushunchalar, protseduralar va legitimlashtiruvchi hikoyalarni qarz oladi. Davlat oddiy huquqni o‘z ichiga olishi mumkin, mahalliy jamoalar esa davlat qonunlarini o‘zlarining madaniy mantiqi doirasida qayta talqin qiladi.

Turli huquqiy tizimlar legitimlikning turli manbalariga murojaat qiladi: xalq irodasi, muqaddas matn, ajdodlar an'anasi, ratsional maqsadga muvofiqlik. Huquqiy tafakkur "haqiqiy" huquq nima ekanligini aniqlash uchun simvolik kuch uchun kurash maydoniga aylanadi.

Ijtimoiy-antropologik yondashuvning muhim jihati *norasmiy amaliyotlarni* tahli qilishdir, ular ko‘pincha rasmiy huquqiy qoidalarni zaiflashtiradi yoki qayta shakllantiradi. *Simvolik kapital* tushunchasi (Rosen)\[8] huquqning amalda qanday ishlashini tushunishga yordam beradi.

Huquqning legitimligi va samaradorligi nafaqat majburlashga, balki uning vakolatlari jamiyat tomonidan tan olinishiga ham bog‘liq. Ushbu vakolat (simvolik kapital) tarix, marosimlar, til va obro‘li vakillar (sudyalar, oqsoqollar, ruhoniylar) shaxslari orqali to‘planadi.

Korruptsiya, nepotizm, norasmiy kelishuvlar – antropologik nuqtai nazardan, bu shunchaki "chetlanishlar" emas, balki homiy-mijoz munosabatlari, qarindoshlik majburiyatlari va xizmatlar almashinuvining mantiqiga asoslangan muqobil normativ tizimlardir. Ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun rasmiy huquq bilan raqobatlashadi va ba’zi kontekstlarda aholi ko‘zida ko‘proq legitimlikka ega.

Xulosa qilib aytganda ushbu xususiyatlarni tushunish migrantlarni integratsiya qilish, ozchiliklar madaniy huquqlarini himoya qilish, mustamlakachilikdan keyingi davlatlarda adliya tizimini isloh qilish va global huquqni konseptuallashtirish muammolari bilan yuzma-yuz kelgan zamonaviy dunyo uchun juda muhimdir. Huquqning ko‘pligi va madaniy chuqurligini tan olish birlashtiruvchi va ko‘pincha imperialistik huquqiy modellardan ko‘ra ko‘proq dialogik va kontekstga sezgir huquqiy tartibga solish shakllariga o‘tish imkonini beradi, bu erda huquq boshqa normativ hayot shakllarini bostirmaydi, balki ular bilan muloqotga kirishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Girts, K. *Madaniyatlarning talqini*. Moskva: "Rossiyskaya politicheskaya entsiklopediya" (ROSSPEN), 2004. ("Qalin tavsif" va huquqni idrok etish usuli haqida).
2. Malinovski, B. *Yovvoyi jamiyatda jinoyat va odat*. Moskva: Academia, 2017.
3. Meyn, G. S. *Qadimgi huquq: uning jamiyatning erta tarixi bilan bog‘liqligi va zamonaviy g‘oyalar bilan munosabati*. Sankt-Peterburg, 1873.
4. *Harakatdagi huquqiy plyuralizm: Maqolalar to‘plami / N. V. Ribakova tahriri ostida*. Sankt-Peterburg: Aletheia, 2019.*
5. Merri, S. E. *Huquqiy plyuralizm*. // Huquq va jamiyat sharhi, 1988, jild. 22, № 5. B. 869–896.
6. Mur, S. F. *Jarayon sifatida huquq: Antropologik yondashuv*. London: Routledge & Kegan Paul, 1978. ("Yarim muxtor ijtimoiy sohalar" tushunchasi).
7. Pospisil, L. *Huquq antropologiyasi: Qiyosiy nazariya*. Nyu-York: Harper & Row, 1971.
8. Rozen, L. *Madaniyat sifatida huquq: Taklifnoma*. Prinston: Prinston universiteti nashriyoti, 2006

XALQ RIVOYATLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MEHNATGA O‘RGATISH YO‘LLARI

Yuldoshev Xolmurzo Davronovich-
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi, Navoiy, tel: +998907309328

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, shuningdek xalq og‘zaki ijodi-maqol, ertaklar orqali o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirish malakasini shakllantirish va takomillashtirish, dars jarayonini
samarali tashkil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, maqol, xalq og‘zaki ijodi, tahlil, hikoya, she'r, masal.

Аннотация: В статье рассматривается влияние начальной школы на развитие мышления и речи. Анализируются вопросы обучения учащихся работе над художественным произведением через художественное произведение, способы анализа произведения, эффективная организация процесса урока на основе методических приемов формирования и совершенствования аналитических умений учащихся.

Ключевые слова: сказка, пословица, добродетель, произведение искусства, анализ, рассказ, стихотворение, притча.

Abctrakt: This article examines the issues of career guidance for primary school students, as well as the development and improvement of their occupational orientation skills through the use of folk oralliterature such as proverbs, fairy
tales, and other genres. It also discusses ways to organize the educational process effectively in this context..

Keywords: fairy tale, proverb, folk oralliterature, analysis, story, poem, fable.

Asrlar davomida axloq-odob mavzusida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, ibratli rivoyatlar yaratigan. Qadimgi faylasuflar, donishmandlar axloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deb ataganlar. Shuning uchun ham jamiyat a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor berilishi bejiz emas. Bu meros namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etigan teran fikr va g'oyalar, ma'naviy-axloqiy qarashlar bugungi zamonamizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Misol uchun eng qadimiy, eng navqiron "Avesto"ni olib ko'raylik.Uning tub mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilini oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin.

O'zbek xalq ijodi qamrovi nihoyatda keng, bag'oyat serqirra va serjilo tushunchadir. U xalqning paydo bo'lishi bilan paydo bo'ladi va rivojlanadi. Unda xalqning orzu-umidlari, qarashlari, hayoti keng bayon etiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqol, topishmoq, tez aytish, qo'shiq, ertak, dostonlarda bola tarbiyasining ma'lum bir xususiyatini o'zida aks etadi. Doston–qissa, hikoya, ta'rif, sarguzasht ma'nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo'lib, xalqning ma'naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ'ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo'rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o'rnak olish hissi tug'iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. "Baxshi" mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustod", "ma'rifatchi" degan ma'nolarni anglatadi.

Yoshlarni mardlik, halollik, jasurlik ruhida tarbiyalashda , ma'nan pok va barkamol qilib voyaga yetkazishda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga. O'z yurtini, oilasi, qo'rg'onini qo'riqlashga, do'sti, or-nomusini, ota- bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzlardan saqlashga, ma'naviy- axloqiy pok bo'lishga o'rgatadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida dostonlardan tashqari maqollarning o'rni beqiyosdir. Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlarini, umid va orzularini ifodalaydi. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ifodalanadi. Maqollar xalq og'zaki ijodining bir turidir. Maqollarda xalqning turmush davomida to'plagan tajribalari natijasida yuzaga kelgan xulosalari ixcham va sodda tarzda bayon etilgan.

Alisher Navoiy o'zining ijodiy faoliyatida xalq og'zaki ijodini o'rganib, kishilar hayotida maqolning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib shunday baytni yozadi:

Kishiga necha mushkul hol,
Hikmatu aql anga erur halol.
Kimki bilay desang maqolin angla,
Asli bilay desang oni angla.

"Maqol" atamasi arabcha "kavlun" – gapirmoq, aytmoq so'zlaridan olingan bo'lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo'nda xulosalarini ifodalaydi. Maqollardagi berilgan fikrlar faqatgina bitta shaxsga tegishli emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan. Maqollarda xalqning orzu-umidlari, ma'naviy-axloqiy qarashlari, muhabbat va nafrat, tarbiyaning barcha qirralari ifodalanadi. Shuning uchun ham bola tarbiyasida, xususan axloq- odobiga ijobiy ta'sir etadi.

1. Odob – kishining zebu ziynati
2. So'z kishining o'zagi, odob kishining bezagi.
3. Buzishga o'rganma, tuzishga o'rgan.
4. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar.
5. Yaxshi xulq – kishining husni.
6. Ho'l yog'ochni egmagin, tegmaganga tegmagin.
7. Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri so'zla.

Folklor materiali bo'lgan maqollarda bolalarni barkamol qilib tarbiyalashning usul va vositalari uyg'unlashadi. Maqollarda pand-nasihat, eslatish, rag'batlantirish, ogohlantirish kabi metodlardan foydalaniladi.

Topishmoq bu bir-biriga o‘xshash ikki predmetdan jumboq yasalib, ikkinchisiga xos o‘xshash belgilar asosida uni topishga mo‘ljallangan she‘riy yoki nasriy topshiriqqa aytiladi. Masalan: “Bir parcha patir, olamga tatir” topishmog‘ida eng to‘yimli ozuqa – patir “Oy” ga o‘xshatilgan. Oy ham go‘zal, tunda olamni munavvar qiladi. Topishmoqlarning mazmunidan kelib chiqqan holda ularda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishini o‘rganishimiz mumkin:

1. Tom ustida bir anor, hadding bo‘lsa ushlab ol.
2. Uxlab yotar kunduzi, shomda ochilar ko‘zi.
3. To‘rt oyoqli, temir tuyoqli.
4. Boraveradi, boraveradi, bo‘yradek yerni olib yotadi.
5. Do‘stim sherik bo‘ladi, uyni qo‘rib turadi.
6. Uyday joyda yotadi, sichqon ko‘rsa qochadi.
7. Tuya desam, kattakon, usti keng-u, bir makon.

Ertaklarda mo‘jiza yoki sarguzasht ma’lum voqea-hodisalarni hayot bilan bog‘lab, haqiqat, ozodlik, to‘g‘rilik, odamiylik, oliyjanoblik g‘oyalarini targ‘ib etadi. Shuning uchun ular bolani o‘ziga ko‘proq jalb etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Jumladan: “Chol bilan kampir”, “Bulbuligo‘yo”, “Ur to‘qmoq”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Baxtli kal” singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar (“No‘xatvoy”, “Quloqvoy”, “Handalak polvon”, “Yapaloqpolvon”) haqidagi turlari, bir yoki ikki epizodli satirik ifoda vositasida salbiy tarbiyaviy sifatlarni tanqid, masxara qiluvchi etnopedagogika turidir.

Tez aytish janrni alohida chuqurroq tahlil qilib ko‘rilsa, barcha tarbiyalar qatori mehnat tarbiyasi yuzasidan juda ko‘p tarbiyaviy manbalar uchratish mumkin. Nonvoy nonni yopar, nonni novvot deb sotar. Jamila jiydani joyiga joyladi. Ikki ayiq qayiqqa qaradi, Oq ayiq oldin qaradimi Qarg‘a qag‘illar qar-qar, Qirni qalin qor qoplar Soli arralaydi, Lola allalaydi Toshmat tog‘dan tosh tashidi kabi tez aytishlarda gapdagi so‘zlar ma’nosini tez anglab olish va ishlatish, bolalar nutqini to‘g‘ri va burro talaffuz qila olish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishda katta rol o‘ynaydi. Xulosa shuki, o‘quvchilarga ertak, maqol, rivoyat va tez aytishlarni o‘rgatish orqali ularda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E. 3-sinf 1-qism O‘qish savodxonligi–Toshkent: ”Novda Edutainment‘‘2023. 60-b.
2. Toirova M.E. 4-sinf 3-qism O‘qish savodxonligi – Toshkent: “Novda Edutainment‘‘ 2023.21-b.

MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO VILOYATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI O‘ZGARISHLAR

UO’K: 334.012.64(575.146)(091)"1991/2021"

D.D.Ashurov,
Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va uning huquqiy asoslarining yaratilishi bilan bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatining barcha sohalari keng rivojlanib bormoqda . yurtimizda 2017-yildan boshlaab tadbirkorlik faoliyatining yangi davri boshlandi uning me’yoriy huquqiy asoslari yangilandi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ulanuvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratildi . Buxoro viloyatida bugungi kunda tadbirkorlik faoliytining rivojlanishi o‘zining eng rivojlanish bosqichiga chiqdi eng avvalo bu viloyatlarda tadbirkorli eng qadimgi davrdan rivojlanib kelgan

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonda tadbirkorlik, davlat siyosati, investitsiya, valyuta va soliq, Iqtisodiyot, Prezident qarorlari, Agrosanoat, to‘qimachilik, Xavfsiz shahar, kreditlar va subsidiyalar, klaster.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие малого бизнеса в Узбекистане и создание его правовой базы. Сегодня все сферы малого бизнеса широко развиваются. С 2017 года в нашей стране началась новая эра предпринимательства, была обновлена его нормативно-правовая база и созданы широкие возможности для тех, кто занимается предпринимательской деятельностью. Сегодня развитие предпринимательской деятельности в Бухарской и Навоийской областях достигло наиболее продвинутой стадии, прежде всего потому, что предпринимательство в этих регионах развивалось с древних времен.

Ключевые слова: Предпринимательство в Узбекистане, государственная политика, инвестиции, валюта и налоги, экономика, малый бизнес, указы Президента, агропромышленность, текстильная промышленность, «Безопасный город», кредиты и субсидии, кластер.

Abstract. This article discusses the development of small business in Uzbekistan and the creation of its legal framework. Today, all areas of small business are developing widely. Since 2017, a new era of entrepreneurship has begun in our country, its regulatory and legal framework has been updated and broad opportunities have been created for those engaged in entrepreneurial activity. Today, the development of entrepreneurial activity in Bukhara regions has reached its most advanced stage, primarily because entrepreneurship in these regions has been developing since ancient times.

Keywords: Entrepreneurship in Uzbekistan, state policy, investment, currency and tax, Economy, small business, Presidential decrees, Agro-industry, textile, Safe city, loans and subsidies, cluster.

Tabiiy f**oydali qazilmalari**ga boy bo‘lgan Buxoro hududining yuqori resurs salohiyatini hisobga olgan holda, O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab nafaqat ularni qazib olish, balki chuqur qayta ishlashga ham qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu yunalishga tadbirkorlik sub’ektlarini jalb etishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, yangi ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish, sanoat salohiyatini yuksaltirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga xizmat qilgan.

Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida 66,2 gektar hududda “G‘ijduvon” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilib90, gilamdo‘zlik sexlari, to‘qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, shuningdek meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste’molchilarga tayyor konservalar, sharbatlar va yarim tayyor mahsulotlar ko‘rinishida etkazib berish imkoni yaratilgan91. Erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, obodonlashtirish va yagona soliq to‘lovlardan ozod etilgan.

Bundan tashqari, Buxoro shahri va Kogon shaharlarida jami 11,1 gektar maydonda 3 ta kichik sanoat zonasi ochilgan bo‘lib, asosan qurilish materiallarini, yengil sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Ushbu sanoat zonalarida sanoat ob’ektlari uchun kerakli uskunalar, zamonaviy konteynerlar, isitish moslamalari, junni kayta ishlash, kurilish materiallarini ishlab chikarish yo‘lga ko‘yilgan 92.

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda barqaror yillik o‘shishni ko‘rsatayotgan turizm sohasi ustuvor tarmoqlardan biri sifatida belgilangan. Shu maqsadda, turizmning yangi turlari: ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, sog‘lomlashtirish, agro sanoat zonalarini tashkil etish bo‘yicha milliy va hududiy dasturlar ishlab chiqilgan. Mamlakatning transport infratuzilmasi va turizm salohiyatini rivojlantirish maqsadida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarini yagona transport yo‘nalishga birlashtirgan Buxoro-Misken temir yo‘li qurilishi boshlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi 939-sonli qarori bilan Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash konsepsiyasi tasdiqlanib, “Xavfsiz shahar” yagona apparat-dasturiy kompleksni ishlab chiqarish bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Samarqand va Buxoro shaharlarida 10 gektar maydonda 24 soatlik turistik zonalar

[90] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 16 - январдаги “Ургут”, “Ғиждувон”, “Қўқон” ва “Ҳазорасп” эркин иқтисодий зоналарини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-29 -сонли Фармони // https://lex.uz/uz/docs/3508783?ONDATE=18.01.2018%2000

[91] Бухоро вилояти ҳокимлигининг жорий архиви,2018 – В. 56 .

[92] Перечень малых промышленных зон в территориальном разрезе // Old.davaktiv.uz (List ofsmallindustrialzonesintheterritorialsection // old.davaktiv.uz)

tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PQ-2980-sonli qaroriga asosan 2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turistik salohiyatini oshirish maqsadida zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, transport infratuzilmasini modernizasiya qilish, zamonaviy mehmonxonalarni sonini oshirish, shahar markazida ixtisoslashtirilgan hunarmandlar do‘konlarini joylashtirish, turistik infratuzilma ob’ektlarida bankomat va terminallarni o‘rnatish, valyuta ayirboshlash punktlarini tashkil etish shuningdek butunjahon axborot Internet tarmog‘idan foydalanishga keng imkoniyatlar ochilgan. Shu bilan birga bandlik masalarini yechishga qaratilgan vazifalar belgilab olingan93.

Turizm qumitasining ma’lumotiga ko‘ra, 2017 yilda mamlakatimizda sayyohlarga xizmat ko‘rsatgan firma va tashkilotlarning eng katta qismi Toshkent shahrida joylashib 321 taga va 70,8 ming xorijiy sayyohga, Samarqandi viloyatida - 57 turistik tashkiloti 20,8 ming xorijiy sayyohlarga, Buxoro viloyatida – 18 ta turistik tashkiloti 13,1 ming xorijiy sayyohlarga, Xorazm viloyatida -8 turistik firmasi 51,2 xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatib kelgan94.

Buxoro viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarining soni 9800 taga yetib, 11 foizi sanoat sohasida, 44,8 foizi qishloq xo‘jaligida, 5,1 foizi qurilish sohasida, 22,2 foizi savdo va umumiy ovqatlanish sohasida, 12,7 foizi95 esa boshqa sohalarda faoliyat yuritgan. Navoiy viloyatida 7743 ta xususiy korxona ro‘yxatdan o‘tgan bulib, 30,2 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga, 15,3 foizi sanoat korxonalariga, 4,0 % foizi qishloq xo‘jaligiga, 5,1 % foizi qurilishga, 45,4 foizi esa boshqa sohalarga to‘g‘ri kelgan96.

2002-yil 1-iyuldan boshlab chakana savdo sohasida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq stavkaning joriy etilishi97 savdo xizmatini tizimini qo‘llab-quvvatlashda muhim qadam bo‘lgan. Natijada, savdo va maishiy xizmat ob’ektlarining soni va sifati keskin oshgan. 2003-yilda ulgurji savdo korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan qator me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi98 chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasining ulushini oshirishga xizmat qilgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun navbatdagi rag‘batlantiruvchi omil O‘zbekiston Prezidentning tomonidan 2018-yilni “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilinishi bo‘ldi. 2018-yil 1-yanvardan boshlab “yagona darcha”da mahsus blankalarda qog‘oz shaklida beriladigan litsenziya va ruhsatnomalar bekor qilinib, elektron shaklga o‘zgartirilgan. Bu esa o‘z navbatida 40 turdagi litsenziya va ruxsatnomalarni berishning yagona markazlashtirilgan tizimini yaratilishiga imkon yaratgan Tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga ikki yillik moratoriy e’lon qilingan.

2018 yil 1-iyundan boshlab tadbirkorlik faoliyati sohasidagi 6 turdagi litsenziyalar va ruxsatnomalar bekor qilindi, shu jumladan 38 ta litsenziya va ruxsatnomani birlashtirib, 15 ta litsenziya va 10 ta ruxsatnomani berish muddati qisqartirilgan. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarga mikrokreditlar ajratish mexanizlari soddalashtirilgan. Tadbirkorlik sub’ektlariga moliyaviy yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish uchun “Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” tashkil etilgan. Tadbirkorlik sub’ektlariga

---

[93] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 майдаги “2017-2019 йилларда Бухоро шаҳри ва Бухоро вилоятининг туризм салоҳиятини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида ПҚ-2980-сонли Қарори// https://lex.uz/docs/3577062

[94] Туризм в республике Узбекистан. – Б. 11 // тиризм_таҳлил_ 17_ру. рдф.

[95] БухДА 1459-фонд, 1-рўйхат, 323-йиғма мажилд, 47-варақ.

[96] Навоий вилояти ҳокимлигининг йиллик ҳисоботи, 2001 йил - Б. 87.

[97] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 12 йилдаги “Савдо ва умумий овқатланиш корхоналарига солиқ солиш тартиби тўғрисида”ги 249-сонли қарори //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002. - 6-7-сон. - 51-бет.

[98] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 4 февралдаги “ Улгуржи савдо корхоналарини ривожлантиришга доир қўшимча чора- тадбирлар тўғрисида”ги 62-сонли қарори// https://www.lex.uz/uz/docs/243101?ONDATE=04.02.2003; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 13 февралдаги 2003 — 2006 йилларда чакана савдо, умумий овқатланиш ва аҳолига маиший хизмат кўрсатиш корхоналари тармоқларини ривожлантиришга доир қўшимча чорағтадбирлар тўғрисида”ги 78-сонли қарори//https://lex.uz/docs/749712?ONDATE=13.02.2003

nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilish shaklidagi jinoiy jazoni qo‘llashga taqiq solingan. SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tadbirkorlik subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bo‘lgan mustaqil institut “Biznesg‘ombudsman” tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-sonli «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmonning qabul qilinishi yoshlarni tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish, faoliyatini yanada oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi tashkil etildi va uning zimmasiga tijorat banklar orqali yoshlarning biznes tashabbuslarini, startap - g‘oyalarini amalga oshirish uchun yillik 7 foiz stavkada kreditlar ajratish bo‘yicha vazifalar yuklatildi99. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga 3 yil muddatga 10 foizlik imtiyozli kreditlar ajratish nazarda tutildi. 7,4 mln. so‘mni olish uchun kafillik 14 mln so‘mgacha olingan kredit uchun garov qo‘yish talab etildi. Mablag‘lardan maqsadsiz foydalanishning oldini olish uchun pul mablag‘lari uskunalar, xomashyo va boshqa zarur anjomlarni sotib olish uchun firma yoki korxonaning hisob raqamiga o‘tkazilishi belgilab berildi.

BOSHLANG‘ICH TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATIV USULLARNING SAMARADORLIGI

Kazbekova Fariza Po‘latovna-
Navoiy Davlat universiteti Boshlang'ich ta’lim
kafedrasi katta o‘qituvchisi

